

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Sharqiy Turkistonda Xitoy mustamlakachiligi va
uning oqibatlari. (Sin imperiyasi davri)**

Bajardi: “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
ta’lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Turdiyev Sardor

(imzo)

Ilmiy rahbar: “Markaziy Osiyo xalqlari
tarixi” kafedrası katta o’qituvchisi
Tilekulova G.S.

(imzo)

TOSHKENT-2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Jahon siyosati va tarix”

Fakulteti dekani

s.f.n., dots. I.N.Bekmuratov

“ ” _____ 20__ yil

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”

Kafedrasi mudiri

t.f.n., dots. Sh.J.Saidov

“ ” _____ 20__ yil

MUNDARIJA

bet

KIRISH 3-6

I BOB. SIN IMPERIYASI VA JUNGAR XONLIGI O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR

I.1 Manjur-Sin imperiyasining tashkil topishi.....7-11

II.2 Jungar xonligi va Sin imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar....11-21

II BOB. SIN IMPERIYASI TOMONIDAN SHARQIY TURKISTON YERLARINI BOSIB OLINISHI VA UNING OQIBATLARI

II.1. Jungar xonligining Manjurlar tomonidan bosib olinishi.....22-43

II.2. Yorkent xonligining Manjurlar tomonidan bosib olinishi....43-48

II.3. Sin imperiyasining Sharqiy Turkistonni bosib olganidan so'nggi
siyosiy ma'muriy tuzumi.....48-52

XULOSA53-54

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

RO'YXATI.....55-57

ILOVALAR.....58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan boshlab jamiyat hayotini barcha sohalarida tub o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlana boshlandi. Milliy tarix masalarini o'rganish sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi, shuningdek uning turli varaqlarini partiyaviy bosim va mafkuraviy qoliplarsiz obektiv o'rganish uchun imkoniyatlar ochildi.

Bizga ma'lumki tarix fani ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va manaviy hayotning tahlilchisi sifatida jamiyat taraqqiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan tarixni o'rganishda muhim qadamlar qo'yildi. 1998 yil 26 iyunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning bir guruh tarixchi olimlar va ijodkor ziyolilar vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvidan keyin tarixni o'rganishga bo'lgan etibor yanada kuchaydi. Ushbu uchrashuvda Prezidentimiz haqqoniy tarixni qayta tiklash borasidagi eng dolzarb masalalarni ko'rsatib berdi. Hech bir halq o'tmishini o'rganmay, o'zining zamon va makondagi o'rnini aniq belgilab olmasdan, nasl nasabini, kimligini bilmasdan turib rivojlanishi mumkin emasligini aytib, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" deya ta'kidlagan edi¹.

Shuningdek, ushbu uchrashuvda Islom Karimov davlatchilik tarixini o'rganish va qayta tiklash davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardan biri ekanligini quyidagicha bayon etgan.

Ushbu ma'suliyatni to'liq his qilgan xolda tarixchi olimlar tomonidan bu sohada diqqatga sazovvor juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Har bir davrda O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan davlat tuzilmalarining tarixi o'rganilmoqda.

XVIII asrda Markaziy Osiyoda katta hodisalar ro'y berdi. Bu yerda mavjud xonliklar o'rtasida nafaqat harbiy to'qnashuvlar bo'libgina qolmay, ular o'rtasida siyosiy diplomatik va savdo aloqalari ham bo'lgan. Bu paytda Xitoyda Manjur-Sin imperiyasini tuzgan Sinlar Markaziy Osiyodagi Xalxe (Mongoliya), Tibet va

¹Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Том 7. - Тошкент: Ўзбекистон, 1993.- 6-135.

hozirgi Shinjon-Uyg'ur avtonom rayonlarida yashovchi bir necha asrlik an'analariga ega xalqlar tarixini va u yerda mavjud hokimiyatni yo'q qildi. Bularga misol sifatida Sin imperiyasi tomonidan Sharqiy Turkiston yerlarini bosib olinishi va uning oqibatlarini keltirish o'rinlidir.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Ushbu Bitiruv malakaviy ish davomida Sharqiy Turkistonning Sin imperiyasi tomonidan bosib olinishi va undan keyingi davrdagi siyosiy tuzumni chuqur tadqiq etish ko'zda tutilgan. Bunga erishish uchun quydagi vazifalarni bajarish lozim:

1. Sin imperiyasi va Sharqiy Turkiston o'lkasi to'g'risida ma'lumotlar to'plash va o'rganilganlik darajasini aniqlash;
2. Sharqiy Turkiston tarixiga doir asar bilan bevosita ishlab va bu asar bilan tanishib chiqish;
3. Shu davrga oid asosiy manbalardan bu davlatga tegishli ma'lumotlarni to'plash;
4. Chet el olimlari asarlari, maqolalari va fikrlarini o'rganish;
5. To'plangan barcha ma'lumotlarni taqqoslash, qiyoslash, ular orasidan eng aniq va manbaga tayanganlarini ajratib olish;
6. Olingan barcha ma'lumotlarni tartibga solib, bir ish holiga keltirish. Bu olti vazifa to'liq bajarilganda, biz o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz;

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Shu narsa bizga ma'lumki, biror xalq o'z tarixini chuqur o'rganmasdan turib rivojlana olmaydi. Tarixiy o'tmishni qayta tiklash tarix fanining asosiy vazifasidir. Sharqiy Turkistonda Sin imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixiga oid manbalar bilan ko'pgina Sharq, Yevropa va rus jumladan: Бичурин Н.Я. ("Историческое обозрение ойратов или калмыков с XV столетия до настоящего времени". 1834, "Китай, его жители, нравы, обычаи" 1840, "Статистическое обозрение Чжунгарии в нынешнем ее состоянии". 1841, "Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена". - М.-Л., 1950), Веселовский Н.И. ("Посольство к зюнгарскому хун-тайджн Цэван-Рабда-ну капитана от артиллерии Ивана Унковского и путевой журнал его за 1722—1724 гг. / Записки Имп. Русского

географического общества”. 1897), Валихонов Ч.Ч. (“О состоянии Алтышаара или шести восточных городов китайской провинции Нан-лу (Малой Бухарии) в 1858—1859 гг”, 1861; Очерки Джунгарии. - Алма-Ата, 1961), Гейнс А.К. (“Киргизские степи”. Военный сборник. 1866. № 6.), Grigorov V. (“Восточный или Китайский Туркестан”, 1873), Parion (“Очерки истории сношений Китая с Тибетом // Труды членов Российской духовной миссии в Пекине. – Т.2. 1853), Левшин А. (“Описание Киргиз Казачьих или Киргиз Кайсацких орд и степей”, 1832). L.F. Kostenko (“Джунгария. Военно-статистический очерк”, 1887), Ходжаев А. (“Цинская империя и Восточный Туркестан в XVIII в. – Ташкент: Фан, 1991) kabi bir qator olimlar tomonidan o’rganilgan. Mavzuning o’rganilaganlik darajasida Markaziy Osiyo va Xitoy o’rtasidagi siyosiy va madaniy aloqalar ko’p ming yillik tarixi mavjud. Mazkur aloqalar tarixini yoritishda xitoy, arab, fors va turk tillaridagi manbalardan foydalanish mumkin. Sharqiy Turkistonda Sin imperiyasi mustamlakachiligi davriga oid Sharqiy Turkiston haqidagi quydagi tarixiy manbalar mavjuddir:

Fors tilidagi manbalar:

1. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди // ЎзФА Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди, инв. №1430.
2. Мухаммад Садык Кашгарии. Дурр ал-мазхар // ЎзФА Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди, инв. № 45/1.
3. Мухаммад-Имин Садр Кашгарии. Асар ал-футух // ЎзФА Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди, инв. № 753.
4. Ходжи Мухаммад Хаким-хан, сын Саида Масъум-хана. Мунтахаб ат-таварих. Коканд, 1854 // ЎзФА Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди, инв.№ 592.

Uyg’ur tilidagi manbalar:

1. Мулла Муса бен мулла Айса Сайрами. Тарих-и Хамиди (История, посвященная Хамиду). -Пекин, 1986.

2. Мулла Муса бен мулла Айса Сайрами. Тарих-и Еминие (История, посвященная Еминие). -Қозон, 1905 // ЎзФА Шарқшунослик институти Қўлёмалар фонди, инв. № 10191.

Хитой тилидаги манбалар:

1. Циньдин Хуанюйту Сиюйтучжи. - Б./ м., 1782.
2. Циньдин Хуэйцзяицзэли. - Б./м., 1814.
3. Чунь Юань. Сиюй вэньцзяньлу. - Б./ м., 1772.
4. Чунь Юань. Синьцзян вай фань цзилюэ. – Б/. м., 1777.

Tatqiqot ob’ekti. Mazkur Bitiruv malakaviy ishga Sharqiy Turkistonda Xitoy mustamlakachiligi (Sin imperiyasi davrida) va uning oqibatlari O’zFA Sharqshunoslik institutining olimi A. Xo’jaevning “XVIII asrda Sin imperiyasi va Sharqiy Turkiston” deb nomlanuvchi monografiyasi tatqiqot ob’ekti sifatida tanlab olindi.

Ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Ushbu Bitiruv malakaviy ishi bo’yicha olib borilgan izlanishlar davomida Sharqiy Turkistonda Sin imperiyasi mustamlakachiligi davrida siyosiy tuzumi to’g’risida izchil o’rgandik va quyidagi natijalarga keldik:

1. Hali o’rganilmagan va kam o’rganilgan manbalardagi Sharqiy Turkistonda Sin imperiyasi mustamlakachiligi davri siyosiy-ma’muriy tuzumi va iqtisodiy hayotiga oid ma’lumotlarni aniqladik va tahlil qilishga harakat qildik;
2. Aniqlangan ma’lumotlarga asoslanib, Sharqiy Turkistonda Sin imperiyasi mustamlakachiligi davri siyosiy-iqtisodiy hayotining ahamiyati ilmiy jihatdan isbotlandi;
3. Sharqiy Turkistonda Sin imperiyasi mustamlakachiligi davri siyosiy-iqtisodiy ahamiyatining asosiy omili bu davlatlar o’rtasidagi diplomatik aloqalar ekanligi aniqlandi.

I BOB. SIN IMPERIYASI VA JUNGAR XONLIGI O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR

I.1 Manjur-Sin imperiyasining tashkil topishi

Manjurlar o'zlarini "manzu" deb atovchi xalq, umumiy soni 10 mln kishi 1990 yilgi ma'lumot. Asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasining shimoliy-sharqiy qismi Dunbey (东北)da yashaydi. Manjurlarning etnogenezi mil. IV asrdagi "moxe-vuji" qabilalar ittifoqiga borib taqaladi. Dastlabki ushbu ittifoq tarkibiga Manjuriyadagi Sungxuajang va Xeylungjiang daryolari bo'yida ovchilik va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi sumuo, buoduo, anchegu, funis, benxay xaoshi, xeyshuy, bayshan kabi yetti qabila kirgan, keyinchalik ularning soni 16 taga ko'paygan. VII-VIII asrlarda xeyshuy va moxe qabilalari kuchayib Boxay davlatini tuzganlar. 926 yil bu davlat kidonlar tomonidan tugatilgan. Keyinchalik manjurlar vanyan qabilasi asosida yana birlashganlar, ularni umumiy holda "nyujeng" deb atashgan. XII asr boshida Aguda boshchiligida nyujenglarning Jin davlati tashkil etilgan (1115-1234). Bu davlat yemirilgach, nyujenglar tarqab ketganlar. 1635 yil Nurxachi ularni qayta birlashtirib, Jin davlatini qayta tiklagan. Shundan so'ng nyujenglar o'zlarini "man" ("to'la", "tugal" ma'nosini bildiradi), yashagan joylari esa Manjou (Manlar vohasi) deb atashgan. 1636 yil bu davlat nomi Chin² ga o'zgartirilgan³.

Manjurlar XVII asr o'rtalarida Koreya, Xitoyni bosib olib Sin imperiyasini tuzdi. XVIII asrda Tibet, Jungoriya, Torim vohasidagi davlatlarni tugatib, ular hududini ham egallab olgach, u yerlarda mustamlakachilik rejimini o'rnatishgan. Manjurlarning kelib chiqishi jurjenlarga borib taqaladi. Manjurlar o'zlarini birinchi marta jurjenlar deb atashgan. Tianjun hukmronligining 9-yili, (1635) xitoyliklarni jahlini chiqarmaslik uchun o'zlarini urug'lariga o'zini manjurlar deb atashni aytgan. Ular shimoliy Xitoyda yashab Chin davlatiga asos solishgan. Mongollar Chin davlatini yo'q qilganlaridan so'ng, manjurlar oldingi jurjenlarga tegishli bo'lgan

² Chin- rus adabiyotida Цин – "tiniq", "toza" degan manoni anglatadi.

³ Шан Юе. Очерки истории Китая. – Москва: Наука, 1959.-С.485.

yerlarni birlashtirishni boshlaydilar. Min sulolasi davrida manjurlar ikkiga daryo g'arbida yashovchi manjurlar va yovvoyi manjurlarga bo'lingan. Daryo g'arbida yashovchi manjurlar birinchi marta hozirgi Ilan shahri va Mudanjanada yashashgan. Yuan sulolasi davrida ularning bir qismi janubdagi Tuminjana havzasiga ko'chib o'tishdi. Keyinchalik ular Xetuala ya'ni hozirgi Liaoning provensiyasining Sinbinia hududi Sukesuxuxe daryosining yuqori oqimiga ko'chib o'tishgan. Bulardan manjurlar kelib chiqqan⁴.

Min sulolasi davrida daryo g'arbida yashovchi manjurlardan ham alohida harbiy gornizol tuzilgan. Manjurlar birinchi marta ovchilik bilan shug'ullanishgan, Koreya bilan Min sulolasining aloqalari rivojlangandan so'ng ular chorvachilikka o'tishgan.

1583 yil Nurxachi⁵ harbiy yurishlarga kirishdi. Ularning kuchi ortib borib, 1616-yilga kelib shimoliy-sharqiy Xitoyning katta qismini egallashga muvofiq bo'lishdi. Nurxachi bu yerda keyingi Chin (Sin) davlatini tuzib, o'zini hukmdor etib tayinladi. Yangi davlat tuzilgach ular Min sulolasidan rasmiy ajralib chiqishdi va shimoliy-sharqiy Xitoyga xavf sola boshlashdi. 1619-yil Lyaodun harbiy okrugi qo'mondoni Yan Xao manjurlardan Sarxu⁶ yaqinida bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchradi. Manjurlar Kayyuan va Telinni egallashdi. Yanxaoni o'rniga Siun Tunbe keldi va 180 ming kishilik armiyani yig'di. Siun Tunbe hujum qilish o'rniga mudofa tizimi tanladi, bu esa Min sulolasi vakillariga yoqmadi va uni istefoga chiqishiga majbur qildi. Uning o'rniga Yuan Intay keldi. U harbiy ishlarda tajribasiz edi. Bundan foydalangan manjurlar Shenyan va Lyaoyanni bosib oldi va Yuan Intay o'zini o'zi o'ldirdi. Bulardan so'ng yana 70 ta shahar egallandi va Nurxachi poytaxtni Lyaoyanga ko'chirdi. Bundan xavfsiragan Min sulolasi yana Siun Tunbeni chaqirishga majbur bo'ldi va Guanin rayoniga harbiy gubernator etib tayinlab, u yerga katta harbiy kuch qo'yildi. 1622 yil Chinlarning hujumi paytida Van Xuajen va Siu Tinbi mudofani tashlab, poytaxtga qochishdi. Bu ishlari uchun Siu Tinbi qatl etilib, Van Xuajen jazodan qutilib qoldi. Undan keyin bosh

⁴ Шан Юе. Ko'rsatilgan asar, C.486.

⁵Nurxachi- Aysinchiarou oilasidan chiqqan manjur hukmdorlaridan biri

⁶ Sarxu-Inpanya, hozirgi yangi Fushuniya shahri

qo'mondon etib Van Zaijin tayinlanib, uning yordamchisi etib general Yuan Chun Xuan tayinlandi. Qisqa fursatda qo'mondan yana o'zgarib, o'rniga qo'mondonlikka qo'rqqoq Gaodi keldi. Bu paytda Chin davlatini popytaxti Shenyanga ko'chirildi. 1626 yilda manjurlar bu holatlardan foydalanib kuchlarni birlashtirishga erishdi.

Yuan Chunxuanyaga qarshi Nurxachi 130 ming kishilik qo'shin yig'di. Ninyuandagi jangda Nurxachi og'ir yarador bo'ldi va chekinishga majbur bo'ldi. Nurxachi yaradorligi sababli vafot etdi va uning o'rniga o'g'li Xuan Taizi (Sin imperatori Tayzun) keldi. U Yuan Chunxuanyaga qarshi kurashib 1627 yil uni Koreyada mag'lub etdi va Ninyuanga qarshi yurish boshladi. Bo'lib o'tgan jangda Min imperiyasi qo'shini g'alaba qozondi. Bu jang "Ninyuan va Zenjoudagi buyuk g'alaba" nomini olgan.

XuanTaizi 1629 yilda Yuan Chunxuanyaga qarshi yurmasdan ichki Mongoliya orqali Xitoyning markazi Pekinga yurish boshladi⁷. Guansiumin darvozasi oldidagi jangda Pekin qutqarilib qolindi. Shundan so'ng 7 oy mobaynida Taizi qo'shinlari bosqinchilik yurishlarini boshlab yubordilar. Pekin mudofachisi Sun Chenjun ta'ziqi tufayli Taizi qo'shinlari Buyuk Xitoy Devorigacha chekinishdi. Bu paytda Min sulolasi vakillari harbiy qo'mondonlarga ishonmasdi va ular katta xatoga yo'l qo'ydi. Taiziga qarshi kurashning muvaffaqiyatsizliklaridan biri xristianlar qo'zg'olononi bostirishga qarshi kurash ham edi. Shuning uchun general KunYuede, Geng Junmin, Shan Kesilar manjurlar tomoniga o'tib ketishdi va o'zlari qo'riqlayotgan hududlarni ochib berishdi.

Bunday bosqinchiliklardan so'ng Taizi 1636 yil barcha hududlarni birlashtirdi va Shenyanda imperatorlik tojini kiydi. Davlatiga esa Sin imperiyasi nomini berdi. Bu davrda Koreya ularning dushmani edi. 1637 yilda Koreya ham bo'ysundirildi. Sinlar ichki Mongoliyani egallab, Min sulolasi bilan to'g'ridan-to'g'ri chegaraga tutashdi. 1636-1643 yillar Sinlar uch marotaba Buyuk Xitoy

Devoriga hujum uyushtirdi va Xitoy hududlarini taladilar. Bunday talonchiliklar Xebey, Shandun, Xenanda sodir bo'ldi. Bunday holatda aholi partizanlik janglarni boshlab yubordi⁸.

1643 yilda Sinlar Xayjouni eganlaganlarida Syao Yuanya boshliq xristian partizan guruhi Sinlarga qarshi hujumga o'tdi va asirga olingan maxbuzlarni ko'pini qo'lga oldi. 1642 yil Buyuk Xitoy Devori yaqinidagi SunShan shahri bosib olindi keyinchalik Ji va Lyao rayonlari bo'ysundirildi.

1643 yil Xuan Taizi vafot etdi va uning o'rniga o'g'li FuLinyu⁹ keldi. Uning o'smirlik davrida vaqtinchalik boshqaruvni amakisi Dorgun boshqargan. 1644 yil Li Zichen Pekinga kirdi va Min sulolasini ag'darib Xitoyda yangi sulolaga asos soldi. Shuning bilan Xitoyda 300 yilga yaqin hukmronlik qilgan va butun Xitoy yerlarini birlashtirgan yangi sulola Sin sulolasining rasman hukmronligi boshlandi¹⁰.

Xitoy jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo'lib qadim zamonlardan bu yerda choy yetishtirish, ipak qurti boqish, shoyi gazlama, zargarlik buyumlari, chinni, o'simliklardan olinadigan bo'yoqlar ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlangan. XVII asrning birinchi yarmida Xitoy manjur qabilalari bilan uzoq vaqt davomida urush olib bordi. O'z navbatida dehqonlar ham mahalliy boylarga qarshi bosh ko'tardilar. Dehqonlar qo'zg'olonidan talvasaga tushgan Xitoy feodallari manjur suvoriylariga Pekin darvozalarini ochib berdilar va ular yordamida qo'zg'olonni bostirmoqchi bo'ldilar. Ana shu xoinlik tufayli manjur feodallari 1644 yilda Pekinda hokimiyatni qo'lga oldilar. Ular yuqori harbiy lavozimlarni, serhosil, unumdor yerlarni egallab, aholidan turli soliqlar undira boshladilar. Davlat tepasida manjurlarning Sin sulolasiga mansub cheklanmagan mutloq hokimiyatga ega bo'lgan bog'dixonlar (imperatorlar) turar edilar. Xitoyning manjurlar tomonidan bosib olinishi uzoq davom etib, har qanday xalq qo'zg'olonlari qattiqqo'llik bilan bostirildi.

⁸ Шан Юе. Ko'rsatilgan asar, C.488.

⁹ Fulinyu-imperotor Shi Ju, boshqaruv davri Shunji deb atalgan.

¹⁰ Шан Юе. Ko'rsatilgan asar, C.491.

Sin sulolasi hukmronligi davrida Xitoyda ijtimoiy va davlat siyosati sohasida deyarli o'zgarishlar ro'y bermadi. Ishlanadigan yerlarning katta qismi yer egalari tegishli bo'lib, dehqonlar yerga birlashtirilgan hamda ular hosilning teng yarmini pomeschiklarga berishlari va boshqa qo'shimcha majburiyatlarni bajarishlari shart edi. Sin imperiyasi kuchli va mustaqil davlatligicha qolib, qo'shni davlatlar va mamlakatlarga nisbatan ustunlikni da'vo qilar, xalq ongiga Xitoy dunyoning markazi va uning atrofida gilar unga bo'ysunishi kerak degan fikr zo'r berib singdirilardi. Min sulolasi o'rniga kelgan Sin imperiyasi hukmdorlari ichida imperator Kansi olib borgan siyosat diqqatga sazovor. U 8 yoshligidayoq taxtga o'tirib mamlakatni (1661—1722) yillar davomida boshqardi, Kansi Konfutsiy ta'limotini qo'llab quvvatladi va Min sulolasi davridagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi. O'z navbatida boshqa dinlarga nisbatan xayrixohlik bildirdi. Sanoat, san'at, adabiyot va maorif rivojlandi. Ilgarigidek chinnisozlik keng tarqaldi. Kitoblarni rangli bo'yoqlar asosida chop etish kashf etildi, gravyura san'ati o'zlashtirildi.

Sin imperiyasi hukmdorlarining boshqaruv san'ati sirlaridan biri shunda ediki, ular Xitoy madaniyatini puxta o'zlashtirib, uning ilg'or an'alarini davom ettirdilar. Kansining o'zi ham o'z zamonining yetuk shaxsi bo'lib, harbiy sohada, ilm-fan, maorif, adabiyot sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Kansining farmoniga ko'ra xitoy tilining ko'p jildli lug'aviy to'plami tuzildi. Bu to'plam hozirgacha o'z qiymatini yo'qotmagan.

II.2 Jungar xonligi va Sin imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar

Sharqiy Turkiston ko'p yillar davomida xalqaro siyosiy, iqtisodiy va manaviy aloqalar rivojlangan joy va shu bilan birga g'alayon va harbiy to'qnashuvlar makoni ham bo'lgan. XVII asrning oxirlarida bu yerda bir qancha mustaqil, mustamlaka va yarim mustamlaka davlatlar mavjud bo'lgan. Bir biridan qiyin bosib o'tiladigan tog'lar, dashtlar, suvsiz sahrolar bilan ajratilganiga qaramasdan bir-biri bilan iqtisodiy bog'langan va bu narsa zadogonlarni harbiy-

siyosiy kamoli, ularni tashqi iqtisodiy xo'jalik aloqalarini takidlaydi. Aynan shu vaqtga kelib mug'ullarning Markaziy Osiyoda ta'siri pasayadi, garchi ular ba'zi mintaqalardagi xalqlarni hayotida keskin ro'l o'ynagan bo'lsalar ham. Ayniqsa g'arbiy mug'ullar (oyrotlar) ni mavqei baland bo'lgan. Ular yetarli kuchga ega bo'lgan davlatga Jungar¹¹ (準噶爾 zhungaer) xonligiga asos solgan. Bu xonlik 1635 yil barpo etilgan va Jungariya ya'ni hozirgi Mug'uliston hududida joylashgan¹².

Jungariyada 1634-1654 yillar hukmronlik qilgan Batur-Xuntayji o'z davrida davlatda ichki birlikka erishish va tashqi siyosiy kuchlarga, ayniqsa Sin imperiyasiga qarshi harakat qilgan edi. Uning davrida mongol va oyrot yerlarida Manjurlarni hujum xavfi paydo buldi. Bunday vaziyatda Jungariyani Rossiya bilan aloqalari bir muncha kuchaydi va ular o'rtasida 33 marta elchilik aloqalari almashildi. Ular o'rtasida birinchi elchilik munosabati 1607 yilda bo'lgan edi. Elchilik aloqalari asosan savdo-sotiq aloqalari bo'lgan. Rossiyadan kelgan elchilarning asosiy maqsadlari Jungariyadagi rus savdogarlarini muhofazasini ta'minlash bo'lgan¹³.

Batur-Xuntayji o'lgach uning o'rniga o'gli Sengen xon etib tayinlandi. Uning davrida u yerda mavjud sulolardan Oltinxonlar sulolasi bilan katta majora kelib chiqdi va bu sulola qirib tashlandi¹⁴.

XVII asrning oxirgi choragida Jungar xonligini-bu xonlikni asoschisi Botur-xuntoyjini o'g'illaridan biri Goldon boshqargan. Oyrotlarni tashqi siyosatda faolligi, umumiy mug'ul imperiyasini tashkil qilish harakati, Xitoy va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatilish Goldon bilan bo'g'liq edi. Siyosiy nuqtai nazardan bunday faollik hokimiyat tepasidagilarni barcha mug'ullarni birlashtirishga qaratilgan. Chunki Xitoyda Sin imperiyasi ta'siri o'sib bormoqda edi. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa oyrotlarni hunarmandchilik buyumlariga xojati

¹¹Jungar-(Jungariya) toponimi mug'ul tilidagi "Zung'ar" – "chap qanot qo'shini" so'zidan kelib chiqqan.

¹²Ходжаев А. Цинская империя и Восточный Туркестан в XVIII в. (Из истории международных отношений в Центральной Азии). – Ташкент: Фан, 1991.- С.16.

¹³ Махмутходжаев М.Х. Завоевание Синьцзяна маньчжурами. Дипломная работа. - Ташкент: ТашГУ, 1967. -С. 63.

¹⁴ Махмутходжаев М.Х. Завоевание Синьцзяна... С.72.

oshganligi sababli yaylovlar kengaytirildi va shaxsiy hazina qo'shni davlatlar hisobidan to'ldirildi¹⁵.

XVII asr oxirida Oyrotlar¹⁶ davlati g'arbda uchta juz xonligidan iborat qozoqlar bilan chegaradosh bo'lgan. Qozoqlarni bunday holati nafaqat ichki omillar bilan, balki tashqi omillar bilan ham bog'liq bo'lgan edi. Jungarlarni yonida qozoqlarning katta juz xalqlari yashagan va ular janubiy-sharqiy Qozog'istonga ko'chib o'tib yuraganlar. Bundan tashqari ular o'rtasida yaylovlar uchun katta to'qnashuvlar bo'lib o'tgan.¹⁷

Jungar va qozoq xonliklari o'rtasida kelishmovchilikni kuchayishi sabab ikkala tomonni Janubiy Qozog'istonda hunarmandchilik savdosini o'z nazoratlariga olish harakati bo'lgan. Bu kurashda yaqqol ustinlik Jungarlar tarafida bo'lgan. Ular XVII asr o'rtalarida qozoqlar yerlariga bir qancha yurishlar ham tashkil qilganlar. Jungar xonligini janubida Sharqiy Turkiston hududida Yorkent xonligi bo'lgan. Bu xonlik XVI asrning 2 yarmida Chig'atoy avlodlari tomonidan barpo etilgan. Bu davlatni sharqiy tomoni Kumul viloyati Sin imperiyasi bilan chegaradosh bo'lgan. 1516 yil Yorkent xoni Saidxon va uning akasi Turfan va Kumul xoni Mansurxon o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra Kumul viloyati Yorkent xonligi tarkibiga kirdi.

Bu paytda Yorkent xonligida asosiy rolni xojalar oilasi boshqaruvidagi ruxoniylar o'ynagan va bu ikkita bir-biriga qarshi qaratog'lik va oqtog'lik guruhiga bo'lingan. Xojalarning Sharqiy Turkistonda mavqei balandligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy mavqeini kuchayishi ularni chig'atoy xonlarining kurashlariga faol aralashuviga imkon bergan va shu bilan birga ular xon taxtiga davogarlik qilgan. Bu holat Jungar xonligiga qo'l keldi va ular yordamida Yorkent xonligi xo'jalar qo'liga o'tdi. Sharqiy Turkistonni geografik joylashuvi va uning xalqaro savdodagi ahamiyati oyrotlarni e'tiborini tortgan. 1713 yilga kelib oyrotlar Yorkent xonligini batamom o'z nazoratlari ostiga olishdi¹⁸.

¹⁵ Ходжаев А. Цинская империя и Восточный Туркестан ... С.16.

¹⁶Ойрот-mongolcha ном. Шарқ ва рус манбаларида қалмоқ, хитой манбаларида вала деб yuritilgan.

¹⁷ Ходжаев А. Ко'rsatilgan asar, С.17.

¹⁸О'sha joyda, С.18.

Sharqiy Turkistonni shimoliy-g'arbiy va shimoliy chegaralarida qirg'izlar yashashgan. XVII asrning ikinchi yarmida jungarlar va qirg'izlar o'rtasida tarang aloqalar saqlanib qolgan va jungarlar qirg'izlarni katta qismini Tyan Shandan haydab yuborishgan. Bazi qirg'izlar Farg'ona vodiysi va Sharqiy Turkistonning ayrim hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lishgan. Qirg'izlar ham o'z maqsadlarini ko'zlab boshqa O'rta Osiyo xalqlari bilan birlashib oyrotlarga qarshi kurashishgan¹⁹.

XVII asrning oxirgi choragida Markaziy Osiyoning janubi Tibetda ruhoniylar boshqaruvidagi davlat bo'lgan. Bu davlatni ruxoniylar boshlig'i Dalay-lama boshqargan. Jungar xonligini Tibet lamalari bilan ham aloqalari bo'lgan.

Jungar xonligini Rossiya bilan ham qalin aloqalari bo'lgan. Goldon hokimiyat boshiga kelgach, ruslar bilan bir necha bor muzokaralar olib borgan. Ruslar bilan aloqa oyrotlarga O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistondagi ta'sirini oshirishga yaxshi omil edi. Jungar xonining harakatlari o'z samarasini berdi va ular ruslar bilan shartnoma qilishga erishishgan. XVII asr oxirida Jungar xonligi va Sin imperiyasi o'rtasida aloqalar o'rnatila boshlanadi. Bu xonlikni mug'ullar o'rtasida ta'sirini kuchayishi, ularga oyrotlar bilan birlashishiga yaxshigina imkoniyat berdi. Bundan tashqari g'arbiy Xalxe va hozirgi Shinjianni sharqiy qismida jungarlar va manjurlarni ta'sirlari to'qnash keldi. Jungar xonligi usha vaqtda Sin saroyi bilan yaxshi aloqani ushlab turishga va ularni barcha mug'ullarni birlashuviga halaqit bermasligiga harakat qilgan. Shu maqsadda Goldon bir necha bor Pekinga elchilar jo'natgan. Jungar xonining siyosati iqtisodiy nazarlarni ham kuzda tutganligini ko'rsatadi. Ya'ni oyrotlarni chorvachilik mollariga ehtiyojini qoniqtirish va xitoy hunarmandchilik mahsulotlarini qo'lga kiritishga qaratilgan edi. Lekin bu narsa Sin imperiyasiga ma'qul kelmadi. Ular oyrotlar davlatini xitoy ta'sirini g'arbga tarqalishiga to'sqinlik qiladigan raqib deb qaragan. Sin imperiyasi bu davrda Xitoyni barcha yerlarini bosib olishni davom ettirardi. 1683 yilga kelib manjurlar Tayvanni egallashdi.

¹⁹Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.18.

Sin imperiyasi Jungarlar bilan ikkiyoqlama siyosat olib borgan: bir tarafdin Goldonga elchilar va sovg'alar jo'natishga imkoniyat bergan, mug'ullar o'rtasida birlik hamjihatlik yo'qligidan xafa ekanligini va manjurlar ularga do'stona munosabatda ekanligini bildirsa, ikkinchi tarafdin Goldonni mug'ullar, alashanlar bilan birlashishiga nisbatan qarama-qarshilikni qo'llab quvvatlagan. Sinlarni bu siyosati haqida bir qancha xitoy manbalarida keltirilgan²⁰.

1690 yil Sin imperiyasining Jungarlarga nisbatan siyosati to'satdan o'zgardi. Shu davrgacha ular Goldonni Xalxe zodogonlari bilan yaxshi aloqalarni o'rnatishga ko'ndirib kelgan bo'lsa, 1690 yildan boshlab Xalxeliklarni ichki ishlariga aralashmasligini talab qilishni boshladi. 1690 yil o'rtalarida Sin hukumati Mug'ulistonga 20 ming kishilik qo'shinni yuboradi. Goldon va Kansi qo'shinlarining Urxuy daryosidagi birinchi to'qnashuvi Jungarlarni g'alabasi bilan yakunlanadi. Ammo Goldon bu kelishmovchilikni do'stona yo'l bilan hal qilmoqchi bo'lib, o'z qo'shinini ortga qaytardi. Lekin 1690 yilgi ikkinchi to'qnashuvda Sin imperiyasi g'alaba qozondi va bundan foydalanib Xalxa yerlarini o'ziga qo'shib olishga oshiqadi²¹.

Bu vaqtda Goldon yordam so'rab rus hukumatiga murojat qildi. Ammo Sin imperiyasi bilan shartnoma tuzgan Rossiya, Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi aloqalarga aralashmasligini bildirdi. Jungar xoni kelishmovchilikni hamon tinchlik yo'li bilan hal qilishga harakat qilardi. Sin imperiyasi esa o'z qarorida qolgan edi. Bundan tashqari ular xalq zodogonlarini Jungarlarga qarshi chiqishiga undadi. 1694 yil Goldon yan bir bor Xalxega keldi. Unga qarshi Sin imperiyasi 85 ming raqibidan ikki barobar ko'p qo'shinni yubordi. 1694 yil iyunida Terelji hududi yaqinida Goldon va Kansi o'rtasidagi jangda Goldon yana bir bor mag'lubiyatga uchradi. Mag'lubiyatdan so'ng Goldon Turfan tomonga qochdi, keyinchalik u qattiq kasal bo'lib vafot etdi.

Goldonga qarshi yurish bilan parallel ravishda Sin saroyi mug'ullarni birlashish fikrini qo'llab turgan Kukunor va Tibet zodogonlarini yo'qotish bilan

²⁰O'sha joyda, C.19.

²¹ O'sha joyda, C.20.

ham shug'ullangan. Oyrot xoniga qurollarni tashlab Sin imperiyasini qaramog'iga o'tish taklif qilindi. Ammo o'z mustaqilligini talab qilgan Goldon Sinlarga qarshi kurashga butun umrini berdi. Xonning to'satdan vafot etishi va taxt uchun kurashlar Sinlarga qarshi birlashuvga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Oyrotlar nafaqat jonli kuchini yo'qotdi, balki katta hududdan ham ayrildi. Mug'ulistonning sharqiy tarafidagi yaylovlar Sin imperiyasi hududiga o'tdi²².

Sin imperatori Kansi bu paytda Jungar xoni Goldon Bashkutixonni o'ziga asosiy raqib olib hisoblardi. 1688 yilga kelib Kansi Goldonga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Shu yili Kansi Goldonning Xitoy va Jungariya o'rtasidagi savdo aloqalarini yaxshilash taklifiga qaramay unga qarshi unga qarshi harbiy harakatni boshlab yuborgan edi²³.

Jungar xoni Goldon 1697 yil o'lgach, uning o'rniga o'g'li Sevan Rabdana keldi. Uning davrida Sinlar ta'ziqi kuchayganligi sababli u Rossiyadan yordam surashga urindi. Uning yuborgan elchisiga Pyotr I ular Rossiya fuqoroligini olgandagina yordam bera olishini aytadi. Lekin Sevan Rabdanaga bu taklif yoqmaydi.

1722 yil imperator Kansi o'lgach, uning o'rniga Yunje keladi. U Jungariyaga tinchlik bitimini taklif qiladi. Biroq Rabdana bunga ko'nmay oldingi sinlarga boy berilgan hududlarini qaytarilishini suraydi. 1727 yil Rabdana ham o'lgach, o'rniga o'g'li Goldon Serena keladi. U otasining siyosatini davom ettirdi. 1728 yil Goldon Sinlarga qarshi muvaffaqiyatli yurishlarni boshlab yubordi²⁴.

1732 yil Jungarlar 30 minglik qo'shin bilan Xalxe hududiga bostirib kirib, mahalliy aholini talon taroj qildi. Biroq yo'lda qaytishayotib O'rxun daryosida ular pistirmaga duch kelishdi va katta talofat ko'rishdi. Jangni tashlab qochgan jungar askarlari qattiq jazoga tortildi. Ularni "Xitoyga qarshi kurashda qochganligi uchun ularga ayol kish kiyimi kiydirilib jazoga tortildi" deb yoziladi. Jungarlarni mag'lubiyati Sinlar bilan muzokara olib borishiga majbur qildi. 1733 yilda ular

²² O'sha joyda, C.22.

²³ Махмутходжаев М.Х. Завоевание Синьцзяна... С.77.

²⁴ Махмутходжаев М.Х. Завоевание Синьцзяна... С.87.

o'rtasida tinchlik bitimi imzolandi. Unda butun Sharqiy Turkiston hududi o'z qo'lida qolib Kobdo hududi boy berildi.

Goldon Seren davrida qozoqlar bilan ham aloqa yomonlashgan edi. 1723-1725 yillarda Jungarlardan mag'lubiyatga uchragan qozoq feodallarini rus hukumatidan yordam surashiga va ularni fuqoroligiga kirishiga majbur qildi. Jungar xonligining Xitoy bilan urushi davrida Qozoqlar oyrotlarga bir necha marotaba hujum uyushtirishgan edi.

Xalxedagi (1690-1697 yillar) Jungar-Sin urushida sinlarning g'alabasi va mongol yerlarining egallanishi, Jungar xonligining Sin imperiyasi va Markaziy Osiyo bilan siyosiy holatini ko'rsatib bergan edi. Jungar hukumati umummongol imperiyasini tuzishni xohlamasdan, Sin imperiyasi va Sharqiy Turkiston, qozoq juzlari va O'rta Osiyo bilan tinchlik aloqalarini o'rnatishga harakat qildi.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Sin hukumati Jungariyaga qarshi urushni davom ettira olmasdan, yangi xonlik tashkil qilishga urinib ko'rdi, lekin muvoffaqiyatsizlikka uchradi. Shu vaqtda sin ta'sir doiralari kuchaydi va hozirgi Shinjian-Uyg'ur hududining sharqiy tumanlarini egallab, Jungariya va Yorkent xonligiga ta'sir o'tkaza boshladi. Bu maqsadda ikkita xonlik o'rtasidagi Kumul asosiy rol o'ynadi. Kumulning egallanishi Yorkent xonligiga yurish uchun tayanch nuqta bo'ldi²⁵.

XVIII asrning 20 yillari o'rtalarida Jungarlar Yorkent xonligi ustidan hukmronlikni o'rnatdi. Kumuldan tashqari butun Sharqiy Turkiston Jungar xonligini mustahkam hududiga aylandi. Sin hukumati jungarlarni tinch yo'l bilan bo'ysundirib bo'lmasligini bilgach, Jungariyaga rasmiy ma'lum qilib, 1714-1715 yillarda harbiy rejalarni ishlab chiqa boshladilar. 1716-1717 yillardagi harbiy harakatlar muvoffaqiyatli chiqmadi. Oyrotlarning kutulmaganda Tibetda paydo bo'lishi sinlarning Jungariyadan qo'shinini olib chiqib ketishga majbur bo'ldi. Sinlar faqatgina Barkul viloyati va kichik oyrot hududlarini egallash bilan cheklandi.

²⁵Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.44.

XVIII-asrning 20 yillar ikkinchi yarmida Yorkent xonligiga urushning ikkinchi bosqichi boshlandi. Turfanni bosib olishga rejalar tuzilib Yorkent xonligi egallangach, Xonga qarshi janub, shimol va sharqdan hujum qilish rejalashtirildi. Lekin rejalar natijasiz tugadi. Sharqiy Turkistonni ichki qismiga kirishda qattiq qarshilikka duch kelganliklari sababli va mongollar bilan kelishmovchilik, sinlarning Turfandan qo'shinlarini olib chiqib ketishiga majbur qildi. Bu rejalar ish bermagach, Sin hukumati Jungariya mavjud ekan, Sharqiy Turkistonni egallab bo'lmasligi ekanligini anglab, yurishni kechiktirishga majbur bo'ldi.

XVIII asrning 1 choragi oxirida Jungar hukumati Markaziy Osiyo va Sin imperiyasining bu hududdagi mavqelarini hisobga olib, chegaralarni aniqlash, ular bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va kelishuvga erishib, Sin imperiyasi tomonidagi tahdidga yakun yasadi. Lekin bu shartnoma Jungariyaga yordam bermadi. Bundan tashqari Sin hukumati 1730-1732 yillarda yangi yurishni boshladi. Lekin bu urishni ham yutqizib, Jungariyada hukumat almashishni kutishga majbur bo'ldi va tinchlik shartnomasini taklif qildi.

Tashqi tomondan qaraganda Jungar xonligi va Sin imperiyasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar yaxshilangandek tuyulardi. Lekin bu davrda Sin hukumati Jungariya ichki ishlariga yashirin tarzda aralasha boshladi. Goldon Serenani Jungar xonligidan ketishi 1755 yil Sin hukumatining yangi yurish boshlashiga imkoniyat yaratdi.

Bu paytda Yorkent xonligi ma'muriy bo'linishiga qaraganda, Kumul Chalish-Turfan viloyati tarkibiga kirgan. Usha vaqtda Yorkent xoni Kumul hukmdoridan ko'p sovg'a salomlar olganligi tufayli Kumul davlat boshqaruviga ko'p aralshmagan. Kumul viloyati Chalish-Turfandagi viloyatlar kabi beklar tomonidan boshqarilgan. XVIII asrning ikkinchi yarimida Yorkent xonligining Chalish-Turfan viloyati birinchi bo'lib oyrotlarning ta'siriga tushgan²⁶.

O'zining geografik jihatdan joylashuviga ega bo'lgan Kumul Jungariya va Sin imperiyasi uchun muhim strategik ahamiyatiga ega joy edi. Xitoy manbalarida bu viloyatni hatto butun Siyuning darvozasi deb aytilgan. 70 yilning oxiri 80

²⁶Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.22.

yilning boshlarida Kumul Jungariya xonligini nazariga tushadi. 1690-1697 yillarda Xalxeda Jungar-Sin urushi paytida Kumul deyarli nizoga tortilgan edi. Sababi urush yillarida oyrot xoniga askarlar yetkazib, moddiy yordam qilgan edi. Kumulning oyrot xoniga bo'lgan qaramligi xitoyning ko'pgina manbalarida aytib o'tiladi. Shunday qilib, "Xami chji"da shunday yozilgan: "Ubaydulla Kumul musulmonlaridan biridir. Dastlab tarxunbek unvoniga ega edi va Jungariyaga bo'ysunar edi." 1693 yilning mart oyida imperatorning mamlakat kansleri Ison va moliya idorasi boshlig'i Machiga jo'natgan farmonida shunday degan edi: "Goldon savdo-sotiqda og'ir vaziyatga tushganligi va bu vaziyatdan qutulish uchun Kumuldan foydalanmoqchi ekanligini ma'lum qildi." 1693 yilning 7 oktabridan bosh qo'ndon Lantay ham o'z hisobotida shu ma'lumotni keltirgan edi. Shu qatorida Sinning bosh qo'mondoni Sudan "Kumul musulmonlari ko'p yillar mobaynida Goldonga soliq to'lab kalayotganligini" ta'kidlab o'tadi. Ubaydulla-xonning o'zi ham Jungar xonligiga tobeligini tan olardi. U 1696 yilda Sin hukumatiga yuborgan xatida "Goldonning kuchli zarbasiga dosh bera olmadim va unga taslim bo'lishga majbur bo'ldim" deb yozgan²⁷.

Sin hukumati Xalxedagi oyrot-sin mojarosiga Kumulni jalb qilgan paytidayoq 1693 yil Goldon bu hududda harbiy harakatlarni boshlagan vaqtida hukumat allaqachon uni Jungar xonligidan olib tashlash qarorini qabul qilgan edi. 1693 yilning 5 fevralida Kansi o'zining farmoyishida "Kumul bizlarni chegaramizdan unchalik uzoq masofada joylashmagan va Sin hududida joylashgan manjurlardan tashkil topgan harbiy qismni jo'natish kerakligini aytib utdi." Keyinchalik Kumulni egallash zarurligini imperatorga aytdi va imperator "Kumul bizni chegaramizdan unchalik uzoq bo'lmagan masofada joylashgan. Uni egallash uchun tezkor choralarini ko'rish kerak. Aks holda qulay vaziyatni qo'ldan boy beramiz va fursatdan to'g'ri foydalana olmaymiz" deb farmon bergan.

Tez orada bunday imkoniyat paydo bo'ldi. Goldonni oyrot-sin mojarosiga jalb qilinishi, Xalxeda qator og'ir vaziyatlarni olib keldi. Masalan Kumulda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz Kumul va Jungariya hukmdorlari ziddiyatlarini keltirib

²⁷ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.23.

chiqardi. Lekin Ubaydulla-xon va boshqa feodallar o'z kuchlari bilan mustaqilika erisha olmasliklarini yaxshi anglar edilar. Bu hol Ubaydulla-xonni Sin imperator huzuriga yuborgan xatida aks etgan. Sin imperiyasi yordamiga muhtoj bo'lgan Ubaydullaxon (Kumul hukmdori) ular bilan aloqalarni yaxshilashga harakat qiladi.

1693 yilning bahorida Jungariyaga jo'natilgan Sin elchisi Madi Kumul yaqinidagi yo'lda talon-taroj qilinib o'ldiriladi. Bu voqeadan habardor bo'lgan Ubaydullaxon elchilar bilan yuborilgan hamrohlarni ko'p narsalar bilan siylab, ularga otlar ham bergan va odamlariga ularni Sin imperiyasi chegarasigacha kuzatib quyishlarini buyurdi. Tashakkur sifatida Sin hukmdori Ubaydullaxon huzuriga yuborilgan elchini o'ldirilishida Jungar xonini ayblab, unga homiyligini bildirgan va uni javobgarlikdan ozod etgan. Ubaydullaxonning bu hatti harakatlaridan norozi bo'lgan Jungariya xoni uni javobgar qilmoqchi bo'lgan. 1696 yilning kuzida bu javobgarlikdan xavfsiragan Ubaydullaxon szyayugan bosh qo'mondoni o'rinbosaridan Sin imperatorining o'zi vada berganidek Goldonga qarshi yurishda yordam so'raydi²⁸.

Ananda Sin hukumatiga Kumulga harbiy yurish boshlash taklifi bilan chiqdi. Lekin Xalxedagi vaziyatning yaxshilanishi tufayli Kanshi qo'shin yubormaslikka qaror qildi. 1696 yil 5 sentabrda oyrotlar qzmoqxonasida 14 yil turgan Abdurashidxonning so'roq natijalari yetib keldi. Unga ko'ra Goldon faqatgina Kukunorga Turfan va Kumul orqaligina qochishi mumkinligi aytiladi.

1697 yil 5 yanvardagi Ubaydullaxon elchisi Narinbek Pekinga yetib keldi. Elchi orqali u Goldonni tutishga rozi ekanligini bildirib o'tadi. Buning uchun Sin hukumati Ubaydullaxon savdogarlariga Pekinda bojsiz savdo qilish huquqi beradi. Goldon Ubaydullaxon va imperator o'rtasidagi kelishuvni bilmasdan turib, o'z o'g'li Chebten-Baljirni Kumulga yubordi. Kumulda uning o'g'li ushlanib, Ubaydulla-xonning kichik o'g'li Bachchabek hamrohligida Pekinga yuborildi. Ubaydulla-xon imperatorga yozgan maktubida, "Biz Goldonning o'g'lini qo'lga oldik, shuning uchun Hamiga hujum qilmaslikni so'rayman." deb yozadi. Imperator Rabdanaga Kumulga hujum qilmaslik haqida buyruq berdi.

²⁸ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.24.

1697 yil may oyida sobiq oyrot xonining o'g'li Danjila o'z otasining murdasi va yaqinlarini olib Jimusa (Guchena yaqinida) ga yo'l oldi. Imperator unga taslim bo'lsa, uning joni omon qolishi haqidagi habarni yubordi. U bunga rozi bo'lib Kumulga qaytdi. Kumulda uni Ubaydullaxonning o'zi kutib oldi va katta o'g'lini imperator huzuriga Danjila bilan birga yubordi.²⁹

1697 yil Ubaydullaxonga eski Xitoy an'anasiga ko'ra zasaka (birinchi darajali knyaz) unvoni va tarxonlik yorlig'i berildi. Uning katta o'g'li G'ofurbekka ikkinchi darajali knyaz unvoni berildi va Sujou³⁰ harbiy qo'mondon yordamchisi etib tayinlandi. Tashqi tarafdin qaraganda Sin hukumati Ubaydullaxonga ehtirom ko'rsatdi, lekin u va uning odamlari Xitoyda xuddi garov sifatida qoldirildi³¹.

Yangi Jungar xoni Sevan Rabdana Ubaydullaxonga Goldonning o'g'li va yaqinlarini qaytarishni buyurdi, lekin rad javobini oldi. Ubaydullaxon Rabdanadan qo'rqib, g'arbiy Xitoy qo'shini qo'mondoni Anandadan Kumulga qo'shin yuborishini so'radi. Sin hukumati Kumulga yordam yubormadi. Bir necha yil o'tgach, Sin hukumati Sevan Rabdana bilan munosabatlari jiddiylashmasligi uchun Kumulga harbiy bo'linmalarni yubordi. Sharqiy Turkistonda bo'layotgan bunday vaziyatlardan, ichki mojarolardan Sin hukumati ustalik bilan foydalanayotgan edi. Shunday qilib Sin hukumati Sharqiy Turkistondagi barcha vaziyatni o'rganib, bu yerga yangi yurishni maqsad qildi.

²⁹O'sha joyda, C.25.

³⁰Sujou-Xitoydagi hozirgi Gansu provensiyasi.

³¹Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.25.

II BOB. SIN IMPERIYASI TOMONIDAN SHARQIY TURKISTON YERLARINI BOSIB OLINISHI VA UNING OQIBATLARI

II.1. Jungar xonligining Manjurlar tomonidan bosib olinishi

XVII asrning ikkinchi yarmida Jungar xonligi ichki kurashlar girdobiga tushib qoldi. Sin hukumati qulay siyosiy vaziyatni ko'zlab o'z rejalarini tuza boshladi. Sin hukumati 1740 yilgi Jungariya bilan tuzilgan shartnomani buzib, oyrotlarning ichki ishlariga faol aralasha boshladi. 1755 yil Sin hukumati Jungariyaga 1732 yilgi yo'l bo'yicha katta qo'shin yubordi. Lekin bu safar qo'shinning oldingi qismida oyrot feodallarining askarlari qo'yildi. Jungariyadagi nizolar tufayli Sin qo'shinlari Ili vodiysiga talofatsiz kirib borishdi. Hukumat qo'mondonlikka Amur Sana va Salarlarni manjur generallarisiz jang olib bormasligi haqida maxfiy buyruq yubordi. Davasiy mudofa uyushtira olgan bo'lsada, lekin muvaffaqiyat qozona olmadi. Davasi Tekesidagi asosiy jangni boy bergach, avval qirg'izlar tomonga so'ng esa Aksu va Uchturfan tomonga qochdi va u yerda mahalliy hukumat tomonidan tutilib Sin hukumatiga topshirildi³².

1755 yil 25 iyuldagi Bandining Pekinga yo'llagan hisobotiga ko'ra Davasi Tekeseda mag'lub bo'lgach orqasidan ikkita guruh yuborgan. Birinchi guruhga Alantai, ikkinchi guruhga Chingunchjaba boshliq etib tayinlangan. Birinchi guruh Dvasining orqasidan, ikkinchi guruh esa u yuradigan janubi-g'arbdagi yo'lga yuborilgan. Chingunchjab Quylik dovoniga kelgach Dvasining izini yo'qotdi va orqaga qaytib qo'mondonga hisobot berishga majbur bo'ldi. Undan so'ng Selin-Ubashi boshliq sakkiz yuzta askar Davasini topish uchun yuborildi. Shu bilan birga qirg'iz va uyg'urlarga Davasini topshirganlarga mukofot e'lon qilindi.

Chan Lun Bandining hisoboti bilan tanishib chiqib, Bandi, Amur Sana va Salarlarga Davasini topishni buyurdi. Agar Davasi uyg'ur yoki qirg'izlar hududiga yashiringan bo'lsa uni topshirish haqida buyruq yuborishni buyurdi. Tez orada Davasi qirg'izlar tarafida ekanligi ma'lum bo'lgach, qirg'izlar chegarasiga bir necha ming kishilik qo'shin jo'natildi. Bandining 1755 yil avgustdagi Pekinga

³² Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.46.

yuborgan hisobotidan birida “Amur Sana o’z odamlari Lansu, Balana, Abduhalikelarni uyg’urlarga Davasini ushlashni buyurish uchun yubordi” deb yozadi.

1755 yil 18 sentabrdagi imperatorning Bandiga yuborgan maxfiy xatida Xoszisa Amur Sana Davasini ushlagach va Yorkent bilan Qashg’ar egallangach, o’zini Sharqiy Turkiston boshlig’i etib tayinlashni so’ragan. Amur Sana Aksu hukmdori Xodibekka Davasini tutib topshirsa unga Yorkent xonligini va’da qilgan va muzokaraga taklif qilgan³³.

XIX asr Xitoy tarixchisi Vei Yuan “Xonszisa bizning szyansyunyaning (general Bandi) taklifini qabul qildi va Davasini topshirdi.” deb yozadi. Yapon tarixchisi Inaba Kudzana “Sinchayu syuanshi” asarida ham bu ma’lumotlar tasdiqlanadi.

Sharaf ad-Dina xoji Yusufbek (Xoszisa)ning Bandiga yozgan xatida “Men barcha yo’llarga habarchilar qo’ydim, sakkizinchi kuni (1755 yil 16 iyul) Davasi Qashg’ar chegarasida to’xtaganligi haqida habar keldi. Men ukamni uning oldiga sharob va otlar bilan yubordim. Ukamga men kasalligim uchun kela olmaganligimni aytib ulardan qayerga ketayotganliklarini so’rashni buyurib, o’z uyimga taklif qildim.” deb yozadi. Davasi agar u haqiqatdan samimiy taklif qilayotgan bo’lsa borishini javob xatida bildirib o’tgan. Shu bilan Sharaf o’rmonda Davasiga tuzoq qo’yib, uni ushladi va 200 kishilik askar hamrohligida uni hukumatga yuborishini takidlagan. Ushanda Davasi bilan uning o’g’li Labuchja, zaysaniAiersi, Danszin, Daerbagai-Ubashi, Dundoke (Donduk), Molomu, Seke-Sedike, Chuisonomu-Emuse, Tubalar jami 17 kishi ushlangan.

“Asar al-Futuh” asarida Bandi Tekesedagi Davasiga tegishli hududni egallagach, barcha qo’shin yetakchilari va aholini yig’ib, Davasi ketganligini, kimki uni ushlasa taqdirlanishi va unvon berilishini va’da qilgan. Yig’ilganlar orasida Davasining qamoqxonasidan ozod bo’lgan Burxan ad-Din xoja va uning akasi Jahongirlar bor edi. Yig’ilishdan so’ng Burxan o’z chopari Muhammad

³³Махмутходжаев М.Х. Завоевание Синьцзяна маньчжурами. Дипломная работа. - Ташкент: ТашГУ, 1967. - С.46.

Garibani Uchturfan amiri Sharaf yoniga Davasini tutish haqidagi buyruq bilan yubordi. Bandi va Qashg'ar tarixchisi ma'lumotlarida Xoszisa- bu Sharaf ad-Dina xoji Yusufbekdir³⁴.

Davasi bu taklif tuzoq bo'lishi haqida o'ylamagan edi ham. Chunki "Asar al-Futuh" asarida Sharaf va uning ukalari Davasining otasining shogirdlari bo'lganligi ta'kidlanadi. Davasi Sharafning oldiga harbiy bo'linmasiz borishga qaror qildi. Lekin u Sharafning odamlari bilan uchrashganda uni qurolsizlantirishadi. Uning o'g'li Labuchja otasi bilan qo'lga olinib, Iliga jo'natildi.

"Shin shi" asarida Davasi ushlangach, Sharafga knyazlik unvoni berildi. 1758 yil unga gushan beiszi³⁵ (imperator qoninig uchinchi darajali knyazi), keyingi yili ikkinchi darajali knyaz unvoni berildi. U 1775 yilda vafot etgan. Bu ma'lumotlarni XIX asr uyg'ur tarixchisi Mulla Muso Sayramiy ham tasdiqlaydi³⁶.

Bandi Sharafga Davasini tutish uchun 300 ta fil, 200 ta oyrot va mongol askarlarini yuborgan. Bu bo'linmalarga Eerdane va Erxatun-Chegesamular boshliq etib yuborilgan. 1755 yil 21 avgustagi Bandining hisobotida 6 oyning 24-kuni Eerdane va Sharaflar Davasi va o'g'lini olib Pekinga yo'lga chiqishgan. Bandi shu bilan birga Davasning 7 ta zaysanini va 70 tacha izdoshini yuborishini yozib o'tgan.

Davasi Pekinga Chan Lun hukmronligining 20 yili 10 oy 17-kuni (1755 yil noyabr) olib kelindi va 50 kundan so'ng qamoqqa tashlandi.

Sin imperiyasi Jungariyaga qarshi urush boshlaganiga qadar oyrotlarni 4 xonning udeliga bo'lish rejasini ishlab chiqdilar. Jungar xonligining bunday bo'lib tashlanishi oyrotlar manfaatiga to'g'ri kelmas edi. Bu rejalar oyrotlarda ishonchsizlik uyg'otmaslik uchun qattiq sir tutilgan. 1755 yil Jungariyaga yurish qilgan sin qo'shinlari ishtirokchilari Davasiy hukumatini ag'darib tashlashga harakat qilganlar va Sin hukumatidan boshpana topganlar edi³⁷.

Sin saroyi tomonidan ishlab chiqilgan rejalariga urush davomida tayinli o'zgartirishlar kiritilmadi, alohida oyrot feodallarini manfaatlarini rag'batlantirish

³⁴ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.44.

³⁵Beiszi- imperatorurug'ining 3-darajali knyazi.

³⁶ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.45.

³⁷O'sha joyda, C.46.

maqsadida bu urushlarda ishtirok etgan va Davasiy tomonidagilarni uz tomoniga ag'dirish uchun Sin imperiyasi 4 viloyatning har bir nomzodlar tarkibiga o'zgartirish kiritish masalasini ko'rib chiqdi. Shunday qilib Ili vodiysi bosib olingandan keyin Sin imperatori Chan Lun o'z generallari va harbiy yurishga ishtirok etgan oyrot feodallarini taqdirladi va bir qator ko'rsatmalarni qabul qildi. Unda ochiq aytildiki, Jungar xonligini boshqarib kelgan oyrot harbiy boshlig'i knyaz Goldon Dorjini charos xoni bog'dixonini qilib tayinlash ochiq aytilgan edi. Imperatorning bu qarori ko'pgina feodallarga norozilik kayfiyatini uyg'otdi, xususan Amur Sanaga yoqmadi.

Shunday qilib 1755 yil iyul oyi boshida general Bandi Sin saroyiga habar berdi: "Amur Sana yashirincha malum qildi. Agar Goldon Dorji charos xoni etib tayinlansa ko'gina xalq norozi bulishi mumkin".

Bandining ko'plab bergan malumotlaridan ko'rinadiki Amur Sana (阿睦爾撒納 Amuersanna, u oyrotlarning yuqori tabaqasiga mansub bo'lmay, quyi tabaqa "chagantugxoy"ga mansub edi. Uning otasi Goldon Serenaning qiziga uylangan bo'lib u 1722 yilda tug'ilgan) va boshqa oyrot xonliklari shuni tushundiki Goldon Dorjini charos xoni (oqsoqoli) etib tayinlagan Sin hukumati shu tariqa uni Jungar xonligini boshqarishni berdi. Shuning uchun Amur Sana general Bandiga malum qildiki, Goldon Dorji bunday nomzodlikka munosib emas, sababiki uni xon avlodiga hech qanday aloqasi yuq va oyrot aholisi ichida hech qanaqa obro'ga ega emas. Amur Sana Goldon Serena (Jungar hukmdori 1727-1745 yillar) oilasida taxtga loyiq to'gridan to'g'ri voris qolmaganli uchun barcha oyrot knyazlarini kengashga chaqirishni general Bandiga taklif qildi³⁸.

Bandi shuni bilardiki sin qo'shinlari Ili vodiysini allaqachon egalladi, shunday ekan Amur Sana va uning maslakdoshlari vaziyatni o'zgartira olmadilar hatto bunga qarshi urinsalarda ham. Shuning uchun sin generali Amur Sanaga Syan Lun farmoyishini qayd etdi "har bir 4 ta oyrot xonligidan chaross, xoit, xoshout va derbet qabilasidan alohida viloyatlarni qayta tashkil qilish va ularga

³⁸ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.47

o'z- o'zlarini boshqarish imtiyozini berish". General Amur Sanaga malum qildi, ya'ni u ham o'zini xoit qabilasining, Baljer va Serena viloyati xoshout va derbet qabilalarining beklari etib tayinlanganligi haqidagi farmonini olganligini aytdi³⁹.

Bandi Sin hukumati yordamida o'z davlatida boshqaruvni qo'lga olishni ko'zlayotgan oyrot hukumati va feodallari masalasi haqidagi Amur Sanani Sin hukumatining maxfiy rejalari bilan tanishtirdi. Amur Sananing tanishuvi, Oyrotlar Davlati birligini saqlab qolishga harakat qilgan, bu mahfiy rejalar burulish nuqtasi bo'lib va boshqa oryot halqlariga ham tegishli edi. Bundan tashqari Amur Sananing oryot davlatini saqlab qolish rejasi butun Jungar aholisi aholisi manfaatlariga mos tushadi, shuning uchun oyrotlarni ko'pchiligi uni qo'llab quvvatladi. Bundan foydalangan Amur Sana hech cho'chimasdan harakatlanib uzini Jungar hukmdori deb his etib, general Bandining farmonini rad etdi.

Amur Sananing jasoratini shu bilan izohlash mumkinki Sin hukumati ortiqcha xarajatlardan qochib, harbiy qo'shnlarni katta qismini Jungariyadan qaytardi va Ili vodiysida general Bandi boshchiligida unga katta bo'lmagan armiya to'xtatildi. General Bandi Amur Sanadan cho'chib, imperator Chan Lunga uni iloji boricha Pekinga chaqirtirib, u yerda asosiy choralarni ko'rishni taklif qildi. Taklif imperator tomonidan maquullandi. Va shular qatorida Chan Lun harbiy kengashga Jungar xonligini 4 viloyatga bo'lish rejasini qayta ko'rib chiqishga buyruq berdi va barcha nomdor oyrot beklarini (xonlarini) yig'ilishga taklif qilib, uchrashuvda ular bilan knyaz va boshqa mansablarga oid nomzodlar tayinlashni ko'rib chiqdi. Buyruqqa muvofiq ravishda 1755 yil iyul o'rtalarida harbiy kengash Jungariyaga maxsus dekret jo'natdi, qaysiki quydagi bandlarni o'z ichiga olgan:

- 1) Jungariyada jabr va o'zaro urush hukmronlik qiladi, xalq urushdan charchagan va tinchlik o'rnatilishini hohlaydi.
- 2) Sin imperatori, Osmon hukmdori bo'ladigan, bu mamlakatning tayanchlari bilan munosabatda beparvo bo'la olmaydi, u qochoqlarga joy va yordam ko'rsatdi.

³⁹ O'sha joyda, C.48.

- 3) Jungariyada tartib va xalqqa tinchlikni ta'minlashga harakat qilib Bog'dixin bu yerga Davasiy va uning yakka hokimiyatini yaniki u barcha kulfatlarni sababchisi bo'lganligi bois armiyani uni jazolash uchun jo'natdi.
- 4) Imperator, Jungariya xalqini tinch bo'lib yashash uchun uning hokimiyati vostida va har bir qabila uzining boshlig'I tomonidan boshqarilishini istaydi.
- 5) U (Imperator) barcha oyrot xonlarini nishon bilan taqdirlash, 4 ta oyrot qabilasini 4ta viloyatga ajratish va qabila boshliqlariga viloyatni o'zlarining odamlari boshqarishini kuzda tutadi.
- 6) Buning hammasi uchun oyrotlar Imperator Oliy hazratlaridan minnatdor bo'lishlari kerak.

Sin hukumatining Jungar xonligini 4 viloyatga bo'lishi va Jungariyaga Sin harbiylarini kelishi to'g'risidagi rejalari oyrotlarni tinchitmadi balki sinlarga qarshi kayfiyatni kuchaytirdi⁴⁰.

1755 yilning sentabr boshida Pekingga Bandining hisoboti to'g'risidagi qog'oz keldi. U imperatorga barcha tszaysaney⁴¹, feodallarning xo'jalik ishlari yurituvchilarini (demutsi, demchi) tog'li rayon aholisini odamlarini, mol-mulkka ega xon uylarini Sin hukumati boshqaruviga topshirilishini taklif qilgan. Shu qatorda katta zaysanyuga⁴²ning uchinchi darajasini va agar u Sin hukumatini ishonchini oqlay olsa o'z boshqaruvini avloddan- avlodga berishni kuzda tutgan. Bandi shu bilan birga tszunguanya⁴³ lavozimiga Jungariyada Sin hukumatiga o'z harbiy harakatlari bilan jasorat ko'rsatgan va sanjidachen⁴⁴, fudutun⁴⁵(副都统) nishonli kishilarni taklif qilgan. Mana bu unvonlarni esa 3 mingdan ortiq oilasi bor hukumatga buysungan shaxslarga berish, neydachenya⁴⁶(内大臣) nishonini

⁴⁰ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.48.

⁴¹Tszaysaney- qabila yetakchilari.

⁴²Zaysanyuga-bosh ish yurituvchi lavozimi.

⁴³Tszunguanya-harbiy gubernator.

⁴⁴Sanjidachenya-imperator soqchilari boshlig'ining kichik yordamchisi.

⁴⁵Fudutun-manjur harbiy shtab komandiri yordamchisi.

⁴⁶Neydachenya-imperator tan soqchilari boshlig'ining katta yordamchisi.

mingdan ortiq bo'lgan oilasi bor shaxslarga berishni taklif qilgan. Bandi barcha 3 ta fuzunguanga⁴⁷ Davasiy hukumatini boshqarish uchun aniqlashni buyurgan. Ulardan ikkitasi o'z qaramog'ida 2-3 ming oilasiga ega bo'lgan va 1 tasi mingta oilaga ega bo'lishi kerak bo'lgan. Bundan tashqari Sin generali imperatorga Davasiyning harbiy kuchlarini yuz kishilik bo'linmalarga bo'lishni taklif qilgan.

Buning hammasi shuni isbotlaydiki Jungariyadagi Sin hukumati Davasiy boshqaruvi va hukumat boshqaruvi tuzulishini tubdan o'zgartirishga qaror qilganligini ko'rsatadi. Yaniki bu mamlakatni boshqarayotgan Sin hukumatiga boshqaruvni bergan va aholisi harbiy bo'linmalarga bo'lingan⁴⁸.

Sin harbiylarining Borotala yo'nalishidagi harakatlariga Chan Lun harbiy nachalnik Davasiy Goldon Dorjini chaross xoni etib tayinlashga qaror qildi. Bunday holatda boshqarayotgan uyga tegishli bo'lgan mol-mulk Goldon Dorjiga berilishi kerak bo'lgan, lekin Sin hukumati uzini birinchi qarorini bekor qildi. Natijada 1755 yil bu Goldon Dorji Sinlarga qarshi harakatga qo'shilib ketdi.

1755 yil iyulida Jungariyaga Amur Sanani Pekinga chaqirish haqidagi buyruqdan keyin ko'pgina oyrot feodallari va qozoq boshqaruvchilarida uni Jungar xoni etib tayinlash istagi haqidagi vahimali xabarlar kela boshladi. Bundan qo'rqqan Sin hukumati general Bandiga Amur Sanani qanday qilib bo'lsa ham ayblash va qamoqqa olish haqidagi maxfiy buyruqni berdi. "Xalq qo'zg'olondan keyin Amur Sanani yengishga kech buladi – deb ta'kidlanadi yozishmada. Hozirgi vaqtdan foydalanib uning masalasini hal qilish kerak, agar Amur Sana hali yo'lga chiqmagan bo'lsa uni muhim masala yuzasidan chaqirtirib uni qamoqqa olish kerak".

Sin hukumatining kuchayotganligi sababli Amur Sana imperator qabuliga borishga zarur buldi. U bilardiki rad javobi Sin generali Bandi bilan ochiq nizoga sabab bo'lishi mumkin edi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. 1755 yil 17 avgustida Amur Sana imperator huzuriga borishga rozilik olgandan so'ng Bandi uni mongol knyazi Erinsin Dorje hamkorligida yo'lga jo'natdi. Bandi yana

⁴⁷Fuzunguan-viloyat ish yurituvchisi.

⁴⁸Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.49.

o'z urnida shundan qo'rqardi. Amur Sanani tarafdorlari ko'p bo'lgan va uni Ili vodiysida qamoqqa olish yomon oqibatlariga olib kelishdan qo'rqardi va uni uzidan uzoqroqqa jo'natishga shoshilardi.

1755 yil yozning oxirida Sin hukumati Jungar taxtiga asosiy davogar va sinlarga qarshi harakat rahbari Amur Sanadan qutulishga qaror qildi va o'zining rejalarini Amur Sananing tarafdorlari va butun oyrot xalqiga o'zaro norozilik uyg'otmaslik uchun ulardan sir tutdi. Chan Lunning 1755 y 22 avgustidagi harbiy kengashga bergan buyrug'ida shunday yoziladi "Agar Bandi Amur Sanani hali qamoqqa ololmagan bo'lsa men o'zim uni qo'lga olaman, Bandi buni hammadan o'ta sir saqlashi kerak va guvohlar bo'lishiga yo'l qo'masligi kerak".

Bandining guvohlik berishicha Jexedagi yig'ilishga Baljir (Amur Sananing ona bir otasi boshqa akasi), Simohu va boshqalar taklif qilingan. Ularga Maxfiy buyruqlar berilib, Sin hukumati Jexega Amur Sananing yaqin tarafdorlarini tezroq jo'nashiga umid qildi. Biroq Baljir va boshqalarni Jungariyada qoldirishga ko'ndirish keying vaziyatlarga halaqit berdi. Chan Lun Bandining hisoboti bilan tanishgach harbiy kengashga "Amur Sana Jungariyada o'zining tarafdorlarini qoldirmoqchi" deb bunga yo'l qo'ymaslik haqida buyruq berdi. O'z o'rnida Amur Sana ham bilardiki Jungariyadan o'z yaqinlari, tarafdorlari bilan yo'lga chiqishi Jungariyada siyosiy o'zgarishlarni olib kelar edi.

1755 yil sentabrdagi Syan Lunning harbiy kengashga yozgan mahfiy yozishmalarida shu ta'kidlanadiki Amur Sana Ili vodiysidan chiqqandan so'ng Bandining oldiga uning odamlari e'lon bilan kelishdi. Baxtga qarshi bu e'lonning mazmuni bizgacha yetib kelmagan. Imperator o'zining yozishmalarida yozishicha: "Bandi o'zining bu odamlarga javobi haqida hisobot bermadi". Bundan shuni tasdiqlash mumkinki Amur Sananinig Jexedagi yig'ilishga borishi va Bandining Ilida qolishi ko'pgina oyrot yetakchilarida shubha uyg'otdi. Shuning uchun ular Bandiga nima uchun yig'ilishga Bandi va boshqa manjur harbiylari emas balki Amur Sana va uning yaqinlari taklif qilindi savoli bilan chiqishdi.

Chan Lunning maxfiy yozishmalarida ko'rsatilishicha shu narsa ayon bo'ladiki Amur Sana Jexeda ushlangach uning tarafdorlarini ham ushlash rejasi bor

edi. “Kecha, deb yozadi bu hujjatda, Amur Sana qo’lga olingach Simokuer va uning tarafdorlarini qo’lga olish rejalashtirilgan edi, lekin agar hozir u qo’lga olinsa bu Jungar avlodlarida norozilik va shubha uyg’otadi”⁴⁹.

Bandining imperatorga yozishicha Amur Sananing tarafdorlari Nagecha, Abages, Saxashi va boshqalar yashirinishgan va Jungar xalqida agitatsiya ishlarini olib borib qirg’iz va qozoqlar bilan aloqa o’rnatishga harakat qilishayapti. Bandining ma’lumotlari bir tomondan shuni ko’rsatadiki Amur Sananing o’z yurti Tarbag’atoyda ushlanib qolishi va yo’lda davom etishdan bosh tortishi juda katta xavotirga soldi. Shuning uchun imperator Bandiga Amur Sanani qayerda bo’lishlaridan qat’iy nazar uni qurolsizlantirish va qo’lga olish haqida o’ta shoshilinch buyruqni yubordi.

Bandi imperator buyrug’iga ko’ra Amur Sanani harbiy lagerga qaytishi haqida unga chopar yubordi. Lekin chopar yuborilgan kuni Iliga Amir-batur (Amuer-batulu) va Dansizin boshliq qozoq elchilari kirib keldi. Qozoq elchisi Jexega Amur Sana bilan borishga va imperator bilan uchrashish uchun Bandiga taklif bildirdi. Bandi Amur Sanani qamoqqa olish va bundan qozoq elchisining o’z yurtiga qaytib bu haqda ma’lumot berishidan qo’rqib u elchiga imperatorni siyosatini to’griligini ishontirishga harakat qildi. Bandi “men qozoq elchisini taqdirlashga qaror qildim va Amur Sanani qaytarishni bekor qildim”. deb yozadi. Bandining qarori Sin hukumati tomonidan maqullandi. Bandining boshqa bir yozishmasida ta’kidlanishicha qozoq elchisi Amur Sana bilan uchrashgach o’z yurtiga qaytib ketgan ⁵⁰. Qozoq elchisining imperator bilan uchrashishga bormaganligi haqida Bandining biror bir yozishmasida va hech qanday hujjatda ma’lumot berilmaydi, lekin taxmin qilish mumkinki elchi Sin generalining va Amur Sana haqidagi rejalarni bilgach, imperatorga oldiga borishdan oldin o’z hukmdori Ablayuga habar berishga qaror qiladi.

⁴⁹Ходжаев А. Ко’rsatilgan asar, С.50.

⁵⁰Ходжаев А. Ко’rsatilgan asar, С.51.

Sin hukumati Amur Sananing kelishiga shubha qilib ulya sultonligining chanchandachen⁵¹ (参赞大臣 canzandachen)ga Dzabxongol daryosi yaqinidagi yashovchi Amur Sananing oilasi va tarafdorlarini Jungariyaga kechib o'tmasliklari uchun qattiq nazorat qilishni buyurdi. Ili vodiysi bosib olingach Amur Sana imperatorga o'z odamlari bilan ona yurti Tarbag'atayga qaytishni iltimos qildi, lekin rad javobini olgan edi. Sin hukumati Amur Sanani Jexega bormasligidan qo'rqib, uning yaqinlarini va tarafdorlarini qo'yib yubormaslikka qaror qildi.

1755 yil 6 oktabrda Pekingga Amur Sanaga kuzatuvchi bo'lgan xalxas knyazi Erinsin-Dorjidan ma'lumot keldi. Ma'lumotlarda u 1755 yil 17 avgustda Amur Sana bilan harbiy lagerdan Nichugunga (Ili vodiysida) yo'lga chiqqanligini yozadi. 26 avgustda (Chan Lun boshqaruvining 20 yil 7 oyi 19 kuni) ular Urungu (Ulungu) daryosidan o'tishdi. Bu yerda Amur Sana Tarbag'atoydagi makoniga ba'zi bir buyumlarni olish uchun borishga qaror qildi, muhrni Erinsin-Dorjega berdi va Jexega Lempil-Dorji (Linzele Doerzi) va xalxas harbiy otryad boshlig'i Yashubeyle-Chaxara va shular qatorida xalxasning 25 talik bo'linmasi va 300 kishilik oyrot bo'linmasi hamrohligida yo'lga chiqishga qaror qildi. Erinsin Dorji o'z ma'lumotlarida "Keyingi kuniga Amur Sana Irtish daryosi bo'ylab qochdi va yo'l bo'ylab talon-tarojlik qildi" deb yozadi⁵².

Yapon tadqiqotchisi Inaba Kunzan, Xitoy tarixchilari Vei Yuan va Lyao Ishanlar ham Amur Sananing Urungu daryosida to'xtab imperator bergan kiyimni tashlab yuborishi va qochishini tasdiqlaydi. Bu boshqa tarixchilar tomonidan ham shunday ma'lumotlar keltiriladi⁵³.

Amur Sananing Urungu daryosiga qochishi bejizga tanlamagan edi. Birinchidan Urungu daryosi Sin harbiylari mavjud bo'lmagan va Ili vodiysidan yetarlicha uzoqda bo'lgan Jungariya shimolida joylashgan edi, ikkinchidan daryo bo'ylab Qora-Irtish daryosidan shimolga mongol oltoyi bo'ylab sharqdagi uning oilasi va qarindoshlari joylashgan Dzabxongol daryosiga, g'arb tomondan esa o'z ona yurti Tarbag'atayga ketsa bo'ladigan yo'llar bor edi.

⁵¹Chanchandachenyu-harbiy kengash azosi.

⁵²Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.51.

⁵³ O'sha joyda, C.52.

Amur Sananing qochishi oyrotlarning Sinlarga qarshi harakatini boshlab yubordi. Bu ko'pgina xitoy va sovet olimlari tomonidan e'tirof etilgan. Lekin harakatning aniq boshlanish vaqti aniqlanmagan. Bazi manbalarning ma'lumot berishicha 1755 yil 19 oktabrda Pekinga Yun Chananing quydagi xati yetib keladi va unda shunday deyilgan: "Hozir Elinxaber (Iren-Xabir)ga va Ulumuchi (Urumchi) tumanlarida barcha tayzilar⁵⁴ g'alayonlar ko'atarishdi, stansiyalar orasida aloqalarni uzishdi va hukumat harbiylarini asirga olishdi". Bu vaqtda Yun Chan Urumchida edi va uning yozishmasi Pekinga Ili bo'ylab 15 kunda yoki 18-20 kun atrofida yetib borgan bo'lish kerak. Oyrotlarning Iren-Xaberdagi namoyishi 1755 yil oktabrning boshlarida boshlangan⁵⁵.

1755 yil harbiy boshliqlardan birining imperatorga yozishicha 8-oy (1755 yil 6 sentabrdan 5 oktabrgacha bo'lgan oraliq) Godogmanzi, Balan, va Tubusherlar Ili vodiysida lama va musulmonlar bilan qo'zg'olon ko'tarishgan.

Imperatorning 1755 yil 28 dekabrda o'z farmonida Chaxar harbiy boshlig'i Achirtu (Echiertu) va manjur harbiy shtabi komandirining yordamchisi (fudutun) Amindaolarning habar berishicha shu yilning 27 sentabrda Amur Sana va Bandi Ili vodiysida bo'lganini yozadi. Shu kuni (28 dekabr) Xalxas knyazi (Beile) Vanzinjab sin harbiylarini Xalxega olib borishi haqidagi buyruqni olganligiga qaramasdan yarim yo'ldan orqaga qaytadi. Qaytgach Bandiga yo'lda ularga oyrotlar hujum qilganligini ma'lum qildi⁵⁶.

Barkuldagi banshidachen⁵⁷(办事大臣) Xezining ma'lumot berishicha 1756 yilning 10 yanvarida Salar unga o'z akasi Bulinni to'rt kuzatuvchi bilan yuborganligini qayd etadi. Salarning elchilari 1755 yil 2 oktabrida zaysani Keshimu (Kashim), Godokmanzi va boshqalar Ilida bosh ko'targanliklari haqida habar berishadi. Salar o'z akalari Nimchajalam va Xetun-elalar bilan bosh ko'targanlarga 2 kun kurashishdi. 4 oktabr kechasi Salar Sikesierg somonidan ushlandi va 60 kun hibsdan saqlandi.

⁵⁴Tayzi-harbiy zodogon.

⁵⁵O'sha joyda, C.53.

⁵⁶Ходжаев А. Ко'rsatilgan asar, C.54.

⁵⁷Banshidachen-viloyat ish yurituvchisi.

Kichik offetser Banining aytishicha Salarining ishonchli odamlari Kungesda og'ir yaralangan va uzoq muddat Ili vodiysida edi, bundan foydalangan oyrotlar 1755 yil 28 sentabrda Ili vodiysidagi harbiy omborlar va boshqa joylarga hujumlar uyushtirdi. Szyanyun Bandi o'z harbiylari bilan Kuldjaga so'ng taqibchilar yetib olgan Kungesga chekindi. Salar esa otga minib xalxas va chaxarzilarni o'z ortidan ergashtirib ketdi. Bandida oltmish kishi qolgan edi xolos. Tunda uning odamlari qo'zg'olonchilar tomonidan urab olindi. O'rab olinganliklarini bilgach Bandi va uning odamlari o'z jonlariga qasd qilishdi, faqat 2 ta og'ir yaralangan Banin va Bokullar tirik qolishdi.

Achirtuning habar berishicha Bandi Vanchinjaba boshchiligidagi qo'shinga oyrotlar hujum qilganligini bilgach, ahvolni bilish uchun kichik bo'linmani ular oldiga yuborgan edi. Bu bo'linmaga oyrot zaysanni Duger va chinshiwei (qo'riqlash boshlig'i) harbiy unvoniga ega Jinkesu boshliq edi. Duger yarim yo'lda bu bo'linmani Butachi viloyatining boshqaruvchisi ixtiyoriga topshiradi va Ili vodiysida mahalliy aholi egallab turgan Sin harbiylari hududlariga qaytadi. Tez orada Zirgilan (hozirgi Kulji shahrining janubi) va Kunges tumanlari, hukumat qo'shinlari mahalliy aholi tomonidan egallab olindi. Bandi va boshqa harbiy generallar o'z jonlariga qasd qilishdi. Salar zaysan Sikesier tomonidan ushlendi. 1755 yil 24 oktabr kechasi Sin harbiylarining ozgina qismi qutula oldi.

Xitoy tarixchisi Van Tunlinning yozishicha oyrotlarning Sinlarga qarshi kurashi boshlangan vaqtda Bandi Salar bilan qiyin vaziyatdan chiqish haqida maslahatlashgan. Shunda Salar: "Amur Sana aqilli va jasur osmon o'glidan unga Jungariya hukmdori unvonini berishni so'rash kerak shunda u tinchlanadi" deb maslahat beradi. Bandi rozi bo'lmay uni oyrotlarga yordam berishda ayblagan. Shundan so'ng Bandi va Ejun'an Ilidagi Kunges daryosi yoniga chekinishgan va o'rab olinganlar. Qiyin vaziyatda qolganini bilgan Bandi o'zini o'ldirgan. "Shinjianning qisqacha tarixi" asarida 1755 yilning 4 oktabrida (8-oyning 29-kuni)

Bandi Ilidan Ulunkutul (hozirgi Nilki shahrining g'arbi)ga yetib kelib tuzoqqa tushadi. Asirga tushishdan qo'rqib o'zini o'ldiradi⁵⁸.

Achirtuning yozishicha Sin hukumatiga shu narsa ma'lum bo'lganki 1755 yilning 9 oyida (6-oktabrdan 3-noyabrgacha) Amur Sana Ilida bo'lgan va u barcha aholiga g'alabani go'sht va vino bilan nishonlashni buyurgan, lekin Syao Ishanyaning tasdiqlashicha Bandi o'lganda Amur Sana Baratolada bo'lgan. Rus manbalarida keltirilishicha Amur Sana qochib Tarbag'atayga boradi va so'ng Iliga yo'l oladi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki oyrotlarning Sinlarga qarshi qo'zg'oloni 1755 yil 27-28 sentabr Ilida boshlanib ketdi. Keyingi bir necha kun ichida qo'zg'olonchilar Jungariyadagi bir necha hududlarni bosib oldi. Ilidagi Sin hukumati Urumchi va Barkulyadagi bir necha ming kishilik Sin harbiylaridan uzib qo'yilgan edi. Ilida qo'zg'olon Amur Sanasiz boshlandi. U qo'zg'olonchilar g'alaba qozongach yetib keldi. Bu yerdagi Bandi va Ejun'anya boshchiligidagi qo'shinlar Urumchi bo'ylab sharqqa yurishdi, tog'li Yulduz rayoni orqali qo'zg'olonchilar qochishmoqchi edi lekin buni uddalay olmadilar. 4 oktabrda Kunges (hozirgi Kuldja shahrining sharqi)da Bandi o'ldi va Sin hukumati ag'darildi.

Amur Sana Tarbag'ataydagi qarorgohini Iliga ko'chirgach, barcha Sinlarga qarshi kuchlarni birlashtirmoqchi bo'lib oyrot knyazlarini unga mustaqillik va ozodlik uchun birlashishga chaqirdi va o'zini butun oyrotning xoni deb e'lon qildi. Lekin Davasiy tarafdorlari bo'lgan oyrot xonlari uni xon deb tan olishdan bosh tortishdi. Usha davr Qashqar tarixchilarining yozishicha Jungar taxti Goldon (Jungar xonligining 1671-1697 yillardagi xoni) oilasining kichkina o'g'li Seren-Dondukning o'g'li Lama Donduk (Larma-Donduk) ga tegishli edi. Lama Donduk Jungar knyazlarining ko'pini birlashtirishga erishgan. Amur Sana va Lama Donduk o'rtasidagi kurash Jungariyani ikkiga bo'lib yubordi. Shunday qilib 1755 yilning oktabrdagi Jungariyada hukumat tuzuldi, lekin Jungariya to'liq birlashtirilmadi.

⁵⁸Ходжаев А. Ко'rsatilgan asar, С.54.

Amur Sananing qochishi imperator Chan Lunning 1755 yil 9 oktabrdagi qaydnomasida qayd etilgan edi. Shu kungacha imperator Goldon-Dorje (charos xoni), Shakmanzi (xoshout xoni) va Bayaru (xoit xoni) lar Ili egallanib oyrotlar yengilgach, ularni Pekinga chaqirib taqdirlagan edi. Amur Sananing qochishi imperatorni g'azabini qo'zg'atdi. Shu kuniyoq imperator uni davlatda xiyonatda aybladi va uni jazolash haqida buyruq berdi. Chan Lun shu bilan birga Sifanyuanning o'rinbosari Yubao va bir necha harbiy boshliqlarga Jungariyadagi Yunchan boshchiligidagi Sin harbiylari shtab qarorgohiga borib Amur Sanani ushlab rejalarini tuzishni buyurdi. Yubao hali yo'lga chiqmasdan besh ming sakkiz yuz harbiylardan iborat shtab kvartira joylashgan Urumchida harbiy stansiyalar va omborlar egallanganligi haqida Pekinga habar yetib keldi.

Yuanchanning ma'lumotlarida uning oz sonlik armiyasi kuchli qarshilik ko'rsatganligi qayd etiladi. Yuanchan ko'pgina choparlarni Sin hukumatiga yetti-sakkiz ming askar, otlar, harbiy qurollar berish uchun jo'natgan. Sin hukumati buni rad etibgina qolmasdan uni qo'rqoqlikda, oyrotlarni boshqara olmaganlikda ayblagan. Chan Lun uni lavozimidan olib harbiy kengashga chaqirtirib sud qilishni buyurtirgan. Yuanchanning o'rniga imperator manjur Selen (dastlab imperator qo'riqchisi keyin Guandun va Guansi viloyati gubernatori, 1748 yil uni Sichuan va Shensi viloyatlari gubernatori bo'lgan, 1750 yil Tebetda antisinlarga qarshi kurashgan, 1755 yil Sinlarning Jungariyaga qarshi yurishida u janubiy yo'llarning harbiy maslahatchisi lavozimiga tayinlangan.) ni va uning yordamchilari etib Yubao, Fude va Daerdanani tayinlagan. Imperator ularga zudlik bilan Barkulga jo'nashni va u yerdan harbiylarni olib Iliga borishni buyurgan. Chan Lun maxsus farmon bilan Selenga chaross knyazi Goldon Dorjini o'zi bilan olib kelishni buyurgan. Sin hukumati bu safar Jungariyaga hujum qilishda Pekin yig'ilishida bo'lgan oyrot knyazlariga suyanishga qaror qildi. Yuanchan poytaxtga borishi haqidagi buyruq kelgunicha uni armiyasi parokandalika yuz tutgan edi. Yuanchanning 1755 yil 19 oktabrda Pekinga yuborgan ma'lumotnomasida u Barkuldan uzilib qolishdan qo'rqib armiyani Urumchidan Muleyxe (shimoliy Urumchi)ga so'ng esa Barkulga olib o'tdi.

Sin hukumati Yuanchanning Barkulga chekinishi va Urumchini qo'ldan ketganligini bilgach Jungariyaga yangi harbiy yurish qilishga qaror qildi. 1755 yilning oktabr oyida Ulyasutay va Barkulga yangi harbiy yurish qilish haqida buyruqlar yuborildi, lekin harbiylar tomonidan ijro etilmadi. Chan Lun shu bilan birga Xitoyning turli hududlaridan Iliga harbiylar yubordi, lekin harbiy yurish rejalarini o'zgartirmadi. Harbiy qo'mondon Selen o'z lavozimiga ikki marta saylanib ikki marta lavozimidan olingan.

1755 yilning dekabrda Selen uchinchi marta Disi Zyasyunem⁵⁹ qo'mondoni, Daerdana uning maslahatchisi etib tayinlandi. Bu safar Sin hukumati qish yaqinlashganini hisobga olib Iliga hujumni janubiy yo'l orqali boshlashga qaror qildi. Shimoliy qo'mondonlikka esa o'z qo'shinlari bilan Jungariya chegarasida turib belgini kutishlari haqida buyruq berildi. Hukumat manjur harbiylarining yuksak salohiyatiga umid qilib Xadaxi, Alaktaya, Yaerxashanyalarni yurishga harbiy qo'mondonlar etib ta'yinladi⁶⁰.

Sin hukumati Bandining o'limi va Ilining qo'zg'olonchilar tamonidan egallanganligini bilmasdan turib, yangi yurish haqida buyruq berdi. Chan Lun Amur Sana va uning tarafdorlari hali birlashmaganiga umid qilib qishning boshida uni qo'lga olish uchun qo'shin yuborishga qaror qildi. Shu bilan birga imperator kengashga Amur Sanani Jungariyaga qo'shin kiritishi, oilasi va yaqinlarini yo'q qilishi haqida qo'rqitib uni bo'ysinishi kerakligi haqida unga xat yuborishni buyurdi. Imperator agar Amur Sana o'z harakatlaridan voz kechsa va Bog'dixondan uzr so'rasa uni va yaqinlarini omon qoldirishga va'da berdi. Imperatorning bu e'loni butun Jungar xalqiga yetkazildi.

Amur Sana imperatoga Javob xatida Bandi va Salarlarni xalqqa zulm qilishda ayblab va yana oyrotlarning mustaqillikni istayotganliklarini ta'kidlab o'tadi. Jungariyaga hujum qiluvchi harbiylarning ma'lumot berishicha Yubao boshchiligidagi qo'shin 1755 yilning nayabrida Pekindan Barkulga yo'l oldi. Ularning orasidan Selen boshliq asosiy qo'shin 8 nayobrda, Chjalafena

⁵⁹ Disi Zyasyunem-g'arbiy yerlar qo'mondoni.

⁶⁰Ходжаев А. Ко'rsatilgan asar, С.57

boshchiligidagi uchinchi guruh 24 noyabrda 8 ming kishilik qo'shin yo'lga chiqdi. Bu vaqtda Barkulda 6 ming kishilik qo'shin bor edi. Agar Yubao, Selen, Chjalafenalar 2 ming kishilik qo'shin bilan Iliga yetib kelsa bu yerda ya'ni janubiy yo'lda sin hukumatining 15-16 ming kishilik armiyasi to'planar edi.

Jungariyaning shimoliy hududlariga Chan Lunga yordam berish uchun Xadaxa boshliq 10 ming kishilik qo'shin yuborildi. Hukumat Amur Sana yaqinlarini qutqarishda mongollardan yordam olishi mumkinligini hisobga olib Xadaxaga Amur Sanani hibsga olish buyurildi⁶¹.

Selen armiyasi 1755 yil dekabr oyining oxirida tog'li yo'llar qor bilan belitilgan va ayni kuchli sovuq paytida Ili vodiysiga yaqinlashdi. Shuning uchun u Ili vodiysiga sharqdan (Iren-Xabir va Yulduz orqali) o'ta olmagan edi. Sin hukumati yurishni keying yilning erta bahoriga qoldirishga majbur bo'ldi. Selen imperatordan barcha oyrot xonlariga Amur Sanani tutib qurollarini topshirish va aks holda ular yo'q qilinishi haqida ularga chopar yuborishiga buyruq oldi. Bu generalga yana Amur Sanani kuzatish va uni dushmanlari yordamida ushlashga buyruq berildi.

1756 yil yanvarda Selen Amur Sanani Baratolada ekanligini bilgach imperatordan u yerga qo'shin yuborishini suradi. Lekin Selen qo'shinlari Iren-Xabirdan Baratola daryosiga o'tgunicha Amur Sana Iliga qaytishga ulgurandi.

1756 yil 19 fevralda hukumat buyrug'iga bo'ysungan holda Selen Aksuga mahalliy hukumatni Amur Sanaga qarshi harakatga jalb qilish uchun Nagecha, Chanbao va Modju boshchiligida uncha katta bo'lmagan qo'shin yubordi. Selen o'z armiyasini asosiy qismini Ili vodiysida saqlardi. Bu vaqtda Ilidan Turfonga Salar o'z qo'shini bilan yetib keldi. U Amur Sanani Chilpanzada ushlashga harakat qilib lekin uddalay olmagach Ilidan Yulduz bo'ylab so'qmoq yo'l orqali Turfonga yetib kelgan edi. Selen Turfonga kelgach u yerning bosh qo'mondoni bilan Amur Sanaga qarshi 30-40 ming kishilik qo'shin to'plashga kelishib olishdi. Lekin Chan Lun bu taklifni also maqullamadi va bosh qo'mondonga Selenni Barkulga yuborib uni oilasi va yaqinlari bilan kuchli nazoratda ushlashni buyurdi. 1756 yil aprelda

⁶¹O'sha joyda, C.58.

imperator Salarni Pekinga taklif qilib Gansu va Shensi viloyatlarini gubernatori Xuan Tinyuguga Salarni hibsga olib oilasini esa Barkulda ushlab turish haqida mahfiy farmon berdi.

Sin hukumati Salarning taklifiga shubha bilan qarasada, lekin uning Iliga ikki yo'l: sharqdan Yulduz orqali, shimoldan esa Sayram ko'li va Talki dovonidan o'tish taklifini maqulladi. Xitoy tarixchilarining yozishicha bu yo'llar orqali 30-40ming kishilik qo'shin yuborilgan.⁶²

Chan Lun Selenga o'z armiyasini Yulduz bo'ylab Kuldji yo'nalishiga, shimoliy yo'l qo'mondoni Xadaxega esa qo'shinni Talki dovoni va Baratola orqali Iliga olib o'tishni buyurdi. Hukumat Amur Sanani janub tomon Aksu va shimol tomon Baratolaga chiqish yo'llarini berkitib hal qiluvchi zarbani berishga qaror qildi.

Selenning yozishicha 1756 yil 24 martda uning qo'shini Bolobuergesu va Jirgalan to'g'li tumanlaridan utib Kuldjaga keldi, u yerda Kurban-Xodji boshchiligidagi 8 ming qo'shin ta'ziqiga duch keldi, lekin qarshilik sindirildi. Chan Lunning buyrug'iga ko'ra Kurban-xodji o'z akasi va oilasi bilan dorga osildi va mol-mulki davlat hisobiga utdi. Ularning ketidan Elutlarning harbiylari Xeerday, Nemoxu, Balai, Ulemutsi, Dalazanbu, Abages, Kushi, Keshim va Amur Sanani qo'llagan bir nechta lamalar ham dorga osildi.

Selen Kuldjaga yetib kelgan paytda Amur Sana Ilidan chiqib ketgan edi. U o'z qo'shinini Kuldjaning shimolidagi tog'li hududga ko'chirdi. Selen o'z maslahatchisi Yubao bilan Pekinga tirik yetkazish kerak bo'lgan Amur Sanani qidirish uchun o'z qo'shinlarini turli hududlarga yubordi. Lekin Amur Sana qozoqlar hududiga o'tib ketishga ulgurdi. Ilidagi guvohlarning ma'lumot berishicha Selen hali Kuldjaga kelmay turib Amur Sana va Kurban-Xodji o'rtasida to'qnashuv bo'lib o'tgan edi. Xodjining armiyasi bir necha ming kishilik edi.

1756 yil 16 fevralda Amur Sana yengilgach tog'li hududga chiqib ketishga majbur bo'ldi. Bunga ular o'rtasidagi birlik bo'lmaganligi sabab bo'ldi. 1756 yil yoz oyinig oxirlarida Selen qo'zg'olonchilarga qarshi bir necha marta yurishlar

⁶²Ходжаев А. Ко'rsatilgan asar, С.58.

qildi ammo Amur Sanani tuta olmadi. Sin hukumati bu holatni bilgach janub va shimol qo'shinlarini birgalikda qozoqlarga qarshi yurish qilishga buyurdi. Bu vaqtga kelib Xalxeda Xotogoy knyazi Chingunjab⁶³ boshchiligidagi Sinlarga qarshi qo'zg'olon yetilib chiqdi. Bu Xalxedagi Sin hukumatiga katta tashvish keltirdi. Sin hukumati mongollar qo'zg'olonini bostirish uchun Jungariya va Ili vodiysidagi qo'shinlarini bir qismini olib chiqishga majbur bo'ldi. Ildagi Jaoxuei boshchiligidagi bir yarim ming kishilik qo'shin (Bandi qo'shinidan 3 marta ko'p) qoldirildi. Selen va Yubaolar Amur Sanani tuta olmagach qo'rqqoqlikda ayblanib o'z lavozimlaridan ozod etildi. Ularga Chan Lunning qamoqqa olish va Pekinga olib kelish buyrug'i yuborildi. Choparlar yo'lda qo'zg'olonchilar tomonidan tomonidan o'ldirildi. Shunday holatda Jungariyadagi 1757 yil bahori va yozidagi harbiy harakatlar Sin qo'shinlarining Ili vodiysidagi mustahkamlanishiga olib kelmadi⁶⁴.

Sin harbiylarining Ilini tark etganlaridan so'ng 1756 yil Bayar, Xasaksila, Nima boshchiligida Jungariyada yangi qo'zg'olon boshlandi. Tez orada qo'zg'olon Jungariyaning shimoliy-sharqiy hududlarida keng ko'lamga ega bo'ldi. Mongollarning ularga birlashish uchun ularga (ya'ni mongollarga) maqul shartlar qo'yildi. Sin hukumati qo'zg'olonga Xitoyning g'arbiy, Sinxaya, Xalxi va ichki Mongoliya hududlaridan to'plangan bir necha ming kishilik qo'shin tashlashga majbur bo'ldi. Shu jumladan, Chaxar va Gansudan ikki ming kishilik qo'shin keltirildi. Chaxar qo'shiniga Erden boshliq edi. Chjaoxueyuga Ili vodiysini tashlab, tezlik bilan Barkulga tayanch nuqtani asrab qolish uchun kelishi buyurildi. Imperator Barkulga jo'natilgan barcha qo'shinlarga qarshilik ko'rsatganlarni qirib tashlash buyurildi. Oyrotlarning Sinlarga qarshi harakatini Turfan hokimi Manlika va barcha aholi qo'llab quvvatladi. 1756 yil 26 dekabrda Xesi boshchiligidagi Sin qo'shinlari o'rab olindi va qirib tashlandi. Imperator Chan Lunning yozishicha bu voqea Ildagi Bandi fojiasini eslatardi. 1756 yil noyabr-dekabrda Ili vodiysini mustaqillikka olib kelgan qo'zg'olon boshlandi.

⁶³ Chingunjab - xitoy manbalarida Chingunjabu.

⁶⁴ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.60.

Chjaoxueyu o'z qo'shini bilan Ilidan zo'rg'a chiqib, hukumat buyrug'i bilan Barkulga yo'l oldi. Lekin u shu yilning qishida Urumchida qo'zg'olonchilar hujumiga duch keldi. Goldon Dorjini Sinlarga qarshi harakatga qo'shilishi Chan Lunda ozgina qo'rquvni uyg'otdi. Imperator harbiy kengashga Goldon Dorji va uning oilasini qirib tashlash uchun maxsus bo'linma yuborishni buyurdi.

1756 yil noyabr-dekabrda Ili vodiysini mustaqillikka olib kelgan qo'zg'olon boshlandi. Chjaoxueyu o'z qo'shini bilan Ilidan zo'rg'a chiqib, hukumat buyrug'i bilan Barkulga yo'l oldi. Lekin u shu yilning qishida Urumchida qo'zg'olonchilar hujumiga duch keldi. Chjaoxueyu qo'shiniga Goldon Dorji o'z qo'shini bilan Chanshzi (Sanji, Chanszi uyezdining quyi markazi, g'arbiy Urumchidan 35km yiroqda)da hujum qildi. Unga hujum paytida Chjangeerbu, Nima, Xasaksa va Echjete tomonidan yordam berildi.

1757 yil boshida Tenage Urumchi yaqinida Chjaoxueyu qo'zg'olonchilar tomonidan o'rab olindi. Fevral oyi o'rtalarida Sin hukumati unga Barkuldan Tulunchu boshliq ikki ming qo'shin yordamga yubordi. 19 martda bu qo'shin yordamida Chjaoxueyu qurshovdan chiqib keta oldi va keying kuni Barkulga yo'l oldi, u yerga 1757 yil 11 aprelda yetib bordi.

Rus tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra Amur Sana 1756 yil oxirida Ablay sulton huzurida 5 kun turgach yana Jungariyaga qaytdi. U 3 oy davomida Sinlarga qarshi kuch to'pladi va Xalxe odamlari bilan aloqalar o'rnatdi⁶⁵.

“Pindin chjungeer fanlyu”(平定準噶爾方略 Pingdin zhungaer fanglue) da yozilishicha 1757 yil bahorida Qora-Irtish daryosi hududida Dashi Serena va Xasaksila boshchiligida hukumatni qattiq tashvishga solgan qo'zg'olon bo'lib o'tdi. 1756 -1757 yillarda ular Goldon Dorji bilan birga harakatlar olib borishdi⁶⁶.

Shunday qilib 1756 yilning oxiri 1757 yilning boshida qo'zg'olon butun Jungariyaga tarqaldi. Jungariyada xalqlarning mustaqillikka erishishi Xitoy harbiylari tomonidan jinoyat deb aytili. 1757 yil 11 aprelda Chjaoxueyu o'z xatida: “Jungarlar jinoyat etishayapti. Ularni butunlay qirib tashlash kerak” deb

⁶⁵ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.58.

⁶⁶ O'sha joyda, C.62.

aytgandi. Chan Lun 1757 yilning 23 martida harbiy kengashga Chjaoxueyuning taklifini maqullashga buyruq beradi. 1757 yilning bahorida hukumat Jungariyadagi qo'zg'olonni bostirish uchun yana qo'shin yubordi. Imperator o'z buyrug'ida: "Oyrotlarga rahm qilmaslik kerak, faqat yoshi keksa, yosh bolalarni qoldirib, ularni turli hududlarga bo'lib tashlash kerak. O'tgan ikki yurishda aholiga insoniy munosabatda bo'lgan edik, agar yana shunday bo'ladigan bo'lsa qo'shin qaytgach ular yana qo'zg'olon ko'tarishadi. Bu safar shubha uyg'otganlarni yo'q qilib, bizga yordam berganlarni tirik qoldirish mumkin" deb yozadi. Bu buyruq Sin hukumatining oyrotlar bilan munosabatlarini yoritadi.

1757 yilgi yurishga manjur generali Chengungchjaba qo'mondon etib tayinlandi va unga dinbyan szyanszunya unvoni berildi. Bu unvon berilguncha u Xalxeda qo'zg'olonchilarga qarshi kurashgan. Unga 1757 yilning 3 oyi (18 aprel-17 may)da Barkulga 300 kishilik bo'linma bilan yetib kelish va Ili vodiysiga hujum boshlash buyurildi. Uning birinchi yordamchisi etib kichik ukasi Sebdenchjab tayinlandi. Bu manjur generaliga yordamchi sifatida o'z o'g'li Dinani olishi va barcha muammolarni Chjaoxueyu bilan kelishib u bilan birga yurish qilishi buyurildi⁶⁷.

Imperator yozishmalarida harbiy kengash Ili vodiysi va Barkulga qo'shinni ikki yo'l orqali; Birinchi yo'l Urumchi, Iren-Xabir va Talki perevali orqali o'tadigan katta yo'l, ikkinchi yo'l esa Turfan, Yulduz va Kunges, undan so'ng tog'li hudud va Ili vodiysining sharqiga boradigan janubiy yo'ldan hujum qilish rejalashtirilgan edi.

Hech qanday hujjat yoki tarixiy manbada Barkuldan Ili vodiysiga jo'natilgan armiyaning aniq soni ko'rsatilmagan. Lekin bazi bir asos bo'ladigan ma'lumotlar bor. Shensi va Gansu provensiyalari gubernatori (szundu) Xuan Tunguyaga hukumat armiyani barcha zaruriy narsalar, ayniqsa otlar bilan ta'minlashni buyurgan. 1757 yil davomida gubernator 27 mingdan ortiq otlarni Barkulga jo'natgan va yana bir necha yuz jo'natishini ta'kidlagan. Sin hukumati

⁶⁷ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.63.

qoidalri bo'yicha har bir askarga ikkita ot berilgan. Taxmin qilishimiz mumkinki 1757 yil bahorida Jungariyada 14-15 ming armiya harakatda bo'lgan.

Rus tarixchilari ma'lumotlarida 1757 yil Sin hukumatining Jungariyada bir necha o'n ming kishilik qo'shini bo'lgan. Birgina Chengunchjabning hisobotida faqatgina Barkulning o'zidan 7 ming qo'shin Ili vodiysiga yuborilgan⁶⁸.

Rus va Xitoy tarixchilarining 1757 yilda Sin hukumatining Jungariyadagi armiya sonini hisoblashlarida rus tarixchilari qo'shinlar sonini birmuncha ko'paytirib berishgan.

Chengunchjabning qo'shini 1757 yilning 30-martida Barkuldan ikkita kalonna bo'lib yo'lga chiqdi. Qo'shin manjur, chaxar, solon, mongollardan tashkil topgan edi. Sin hukumatining yozishicha Chengunchjabning o'z qo'shini bilan katta yo'ldan, Chjaoxueyu esa o'zining yordamchisi Fude bilan janubiy yo'l orqali yo'lga chiqqan. 1757 yilning bahor boshida Amur Sana Chengunchjabning yurishidan behabar, sharqqa qo'g'olonchilar bilan birga harakat qilishga otlandi. Sin hukumati Amur Sananing paydo bo'lganini bilgach, Xalxidan Tanxalu boshliq qo'shinni Jungariyaga shimoliy yo'l orqali yubordi. Bu qo'shin qo'zg'olonchilarni qirib tashlashi va Chengunchjaba bilan birga harakat qilishi kerak edi. Sin qo'shinlarining yetib kelishigacha qo'zg'olonchilar ichida urush paydo bo'ldi va buning oqibatida Nima Amur Sanani tarafdori Goldon Dorjini o'ldirdi. Uni o'ldirilishi sababi etib Goldon Dorjini Amur Sanaga qarshi harakat boshlashi va Jungariyaga hukmron bo'lishga intilishi deb ko'rsatildi. Bundan tashqari Nimaning otasi o'lgach, o'zining yeri Iren-Xabir va Urumchini tashlab chiqishi Goldon bilan munosabtlarini buzdi. "Pindin chjungeer fanlyu"da keltirilishicha Nima o'z tarafdorlari bilan Baratolaga ko'chib o'tgan va Urumchi yaqinidagi Iren-Xabirda harbiy harakatlar olib borishgan. Qo'g'olonchilar ichki nizolar tufayli zaiflashdi, shuning uchun Chengunchjaba 1757 yil 25 mayda Urumchini deyarli qarshiliksiz bosib o'tib Xutubi (g'arbiy Urumchi)ga yo'l oldi⁶⁹.

⁶⁸ O'sha joyda, C.64.

⁶⁹ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.65.

Chjaoxueyu Ili vodiysini yaxshi bilganligi uchun birinchi bo'lib yetib bordi. Kurungeu tog'larida u oyrotlarning qarshiligiga uchradi va 3 maydagi jangda yengildi. Tez orada Iliga Chengunchjaba qo'shini yetib keldi. 1757 yilning may va iyun oylarida Baratola va Tarbag'atayda bir necha janglar bolib o'tdi. Oxir oqibatda Sin hukumati g'alaba qildi. Bunga Jungariyadagi ospa (ospi) epidimiyasi va aholining kamayib ketishi sabab bo'ldi.

1757 yilning avgust-sentabr oylarida Pekinga Yulduz va Ili atrofidagi tog'li hududlaridan harbiy harakatlar haqida habarlar kelib turdi. Askarlar qo'zg'olonchilar va ularning yaqinlarini qirib tashlar edilar.

Jungariyani bosib olish 1757 yilning noyabr boshigacha tugadi. 1755 yil bahor va yozgi harbiy harakatlarda Amur Sanaga hech kim yordamga kelmadi. Hatto qirg'izlar ham nafaqat yordam berishga, balki joy berishga ham qodir emas edilar. Rossiya hukumati Sin imperiyasi bilan yaxshi munosabatda bo'lmasada, Amur Sanaga yordam bermadi. Amur Sana yengilgach Rossiya hududlaridan qo'nim topip usha yerlarda umrining oxirigacha yashadi⁷⁰.

Shunday qilib, o'z ichki nizolar girdobida qolgan Jungar xonligi avval Sin imperiyasi bilan tinchlik bitimini imzolashga erishgan bo'lsada, keyinchalik unning vassaliga aylanib qoldi. O'z o'rnida Sin hukumati ham Jungariyadan tobelikni talab qildi. Sin hukumati avval shimoldagi hukmronligini mustahkamlagandan so'ng, shimoliy-g'arbiy hududlarga ya'ni Jungariyaga hujumini boshlab yubordi va uni bo'sundirishga muvoffaq bo'ldi.

II.2 Yorkent xonligining Manjurlar tomonidan bosib olinishi

Sin hukumati Yorkent xonligini egallash uchun taxtga bu xonlikka qarshi bo'lgan belogor xojasini chiqardi. 1756-1757 yillarda Jungariyada sinlarga qarshi harakat Yorkentga qo'shin tortishga halaqit berdi. Yorkent xonligini bo'sundirishda Sin hukumati Sharqiy Turkistondagi feodallar o'rtasidagi ichki nizolardan foydalandi.

⁷⁰Ходжаев А. Ко'rsatilgan asar , С.65.

1755-1756 yillarda Sin hukumati belogor xojalari va aksu-uchturfan feodallarini chernogorlarga qarshi qo'ydi. Uchturfan va Turfan feodallarini esa belogorlarga qarshi qo'ydi. Sharqiy Turkiston egallangach, Sin hukumati Uchturfan hukmdorini mamlakatning boshlig'i sifatida o'z oilasi bilan Pekingga olib ketdi. Bu bilan sinlar "varvarlarni varvarlar orqali boshqarish" shiorini qo'llashgan.

1755-1757 yillardagi Jungariyadagi antisinlar harakati Imperator hukumatining Yorkent xonligiga qarshi yurishiga halaqat berdi. Birinchi bosib olishga bo'lgan harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1758 yilga kelib Jungariyadagi qo'zg'olon deyarli bostirildi. Yorkentga yurish Qashg'arni bosib olishdan boshlanadigan bo'ldi. Buning uchun Barkul xoni Aminxoji va Aliqulga Qashg'arni bosib olib u yerda harbiy qo'shin uchun joy tayyorlash topshirildi⁷¹.

1758 yil oxirida bu shahar bosib olinadi. Bu yurishda ya'ni Qashg'arga yurishga Xitoydan yana 8 ming askar jalb qilindi va Aminxo'jaga o'z qo'shini bilan qatnashish sharti qo'yiladi. 8 ming qo'shin kelgach unga Yaerxashanya qo'mondon etib tayinlanadi. Tarixchi Vey Yuanning yozishicha bu qo'shinda 10 ming ta ot bo'lgan. Ildagi qo'zg'olonga qarshi kurashayotgan Jao xueyuga qo'zg'olonni bostirib Qashg'arga jo'nash majburiyati yuklanadi. Uning qo'shini 3600 ta askardan tashkil topib, har bir askar 2 ta ot bilan ta'minlangandi. 1758 yil Qashg'arga yurishni birinchisi Turfan, ikkinchisi Ildan boshlanib yurishda 10 mingta askar qatnashgan.

1758 yil 6 iyundan Turfandan birinchi kalonna yo'lga chiqqan. Hal qiluvchi jang 20-iyulda Kuchar qal'asi yonida bo'lib, xitoy askarlari pushkalar bilan, Abdullabek askarlari esa ov miltiqlari bilan qurollangandi. Qo'shin son jihatidan teng bo'lishiga qaramay xitoyliklar qurol-aslaha jihatidan ustun edilar. Shu yilning 28 iyulida bo'lib o'tgan jangda aka-uka Abdullabeklar g'arbiy darvoza orqali 400 otliq qo'shin bilan to'g'li hududga qochishdi⁷².

Tarixchi Vey Yuanning yozishicha Kuchar devorlari juda mustahkam bo'lib, uni imperator qo'shinlari qurollari buzib o'tolmadi. Shunda devor ostidan tunel

⁷¹O'sha joyda, C.79.

⁷²Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.81.

qazildi. Buni shahar himoyachilari sezib qoladilar va tunel tushirib yuboriladi. Natijada 600 dan ziyod xitoy askarlari nobud bo'ladi. 1758 yil Kuchar voqealari xitoy tarixchisi Syao I shan va yapon tarixchisi Inaba Kungsan tomonidan batafsil yozib qoldirilgan.

Sin imperatori Chan Lun Kuchardagi voqealarni eshitib, qo'mondon Yaerxashanyani lavozimidan bo'shatib, uning o'rniga Chjaoxueni tayinladi. Kucharni tark etgan Burxan ad-Din xo'ja va Jahon xo'jalar Aksu tomon yo'l olishdi. Ular Aksu va Uchturfan hokimi yordamida mudofaa uyushtirishni maqsad qilishdi. Lekin ularni Uchturfan hokimi Xojibek shaharga qo'ymadi. Shundan so'ng katta Xo'ja Qashg'arga yo'l oldi. Kichik Xo'ja esa Yorkentga borib o'z tarafdorlarini yig'moqchi bo'ldi.

1758-yil o'rtalarida Sin imperatori o'z qo'mondoniga ikkala Xo'jalarni sotqinlikda ayblab qo'lga olishni buyurd. Shu bilan xalq orasida agetatsiya ishlari boshlandi. Imperator "Agar xalq ikkala Xo'jalarni tutuib topshirsa ular o'z hayotlari osudaligini saqlab qolishgan buladi" deb yozgan edi.

Bosh qo'mondon Yaerxanya o'z hisobotida shunday yozgan edi: "Mening eshitishimcha Aminxo'ja o'z mavqeidan foydalanib hukmronlik qiladi. Uchturfan hokimi Xo'ja Yusufbek o'z yaqinlari bilan 4 ta shaharni boshqaradi va uning obro'si ikkala xo'jalarnikidan kam emas. Agar Aminxoji Uchturfan hokimini ikkala xo'jalarga qarshi ko'ndirsa, bizning yurishlarimiz ancha yengilashadi. Men Aminxoji bilan suhbatlashdim va u bunga rozi bo'ldi".

Sin imperatori Chjaoxuega yuborgan buyrug'ida ortiqcha harakat qilmaslikni ta'kidlab, qirg'izlar qilgan mojaroga bormaslikni tayinlagan. Qashg'ardagi qirg'iz feodallari xitoyliklarning Jungariyadagi kuchini ko'rib, ularga qarshi qurol ko'tarishga qo'rqib Imperator tomoniga o'tishdi.

Imperatorning Qirg'izlarga yuborgan buyrug'ida "Agar bizga buysunishni istamasangiz, shunday qolsin lekin o'z yerlangizda muqim qolinglar. Agar bizning yerlarimizda uchrasalaringiz bizning qo'shinimiz sizlarni yakson qiladi." deyilgandi. Shunday qilib Imperator bu yo'l orqali qirg'izlarni sinlarga qarshi harakatda

qatnashmaslikka majbur qildi. Hatto qirg'iz feodallari sinlarga amaliy yordam bera boshladi⁷³.

Chjaoxue Aksuni egallagach, 1758 yilning 1 oktabrigacha Uchturfanni ham bosib oldi. Uchturfan hokimi Burxon ad-Din va uning o'g'li Xudoyberdi Jangsiz taslim bo'lishdi. Shundan so'ng Xojibek Chjaoxueni Yorkentga taklif qildi. Yorkent 12 ta darvozaga ega bo'lib, devorining uzunligi 6 km teng edi. Devor atrofida chuqur xandaqlar qazilgan edi. 1758 yil 13 noyabrda Chjaoxue shaharning sharqiy va janubiy tomonlaridan hujum uyushtirdi. Qo'shin shaharga yaqinlashmasdan shahar darvozalari ochilib, 5 mingga yaqin qo'shin sinlarga qarshi chiqib keldi. Ular o'rtasidagi jang Qorasuv daryosi yaqinida bo'ldi va xitoyliklar qurshovga tushib qoldi. Chjaoxue Aksuga qo'shimcha yordam berish uchun xabarchi yuborishga ulgurdi⁷⁴.

Imperatorning yordami bilan Urumchidan Fude boshchiligida 3 ming kishilik qo'shin yordamga yuborildi. General Fude ham jangda mag'lub bo'lgach Barkuldan 16 ming kishilik qo'shimcha qo'shin yuborildi va shundan so'ngina qarshiliklar sindirildi. Chjaoxue qo'shinlari dastlabki jangda mag'lub bo'lgach, Imperator saroyi katta kuch to'plashga qaror qilgan edi. 1759 yil yozida Aksuda 20 ming askar, 30 ming ot va 10 ming tuyaga ega katta kalonna to'plandi⁷⁵.

Yorkentning so'ngi xoni Burxon ad-Din xoji va uning akas Jaxon xojilar sinlar tomonidan qatl etilishi Imperator saroyini qanoatlantirmadi va Sharqiy Turkistonni boshqarish uchun hokimlarni harbiylardan tayinlash boshlandi va u yerdagi uyg'urlarni boshqarish uchun u yerda ma'lum miqdorda qo'shin saqlanadigan bo'ldi. Jaxon xoji o'ldirilgach, Chjaoxue uning barcha yaqinlarini ayovsiz qirdi. Faqat uning kenja o'g'li Sarimsoq xoji Buxoroga qochib yashirindi.

Sin hukumati Sharqiy Tukistonda Xojibekning yaqinlaridan hokim tayinlashdan qo'rqqar edi. Chunki 1755 yilda Amur Sanani hokim etib ta'yinlab buning ayanchli natijasini ko'rgan edi.

⁷³ Ходжаев А. Ко'rsatilgan asar, С.85.

⁷⁴ O'sha joyda, С.86.

⁷⁵ O'sha joyda, С.87.

Imperator Chan Lun Xojibekning butun avlodi qirib tashlangach, mahalliy musulmonlar ustidan nazorat qiladigan yo'lboshchi qolmaganligidan sodiq quli Uchturfan hokimi Aminxo'jani Qashg'ar musulmonlar boshlig'i etib tayinladi.

Sharqiy Turkiston egallangach, Yorkent xonligi tugatildi va taxtga da'vogarlar jismoniy yo'q qilindi yoki Pekinga olib ketildi. Xonlikni faqatgina mahalliy boshqaruvigina qoldi xolos. Kumul va Turfan hukmdorlari knyazlik unvoni bilan taqdirlandi. Sharqiy Turkiston katta, o'rta va kichik shaharlar ko'rinishdagi yangi ma'muriy hududiy bo'linishga bo'lindi. Ular markazi Ili bo'lgan Jungariya va Qashg'ardagi harbiy boshliqlar boshqaruvchisi etib tayinladi. Sharqiy Turkiston hukmdori davlatni chanchandacheney, banshidacheney va lingduydachen ⁷⁶ (领队大臣 lingduidachen)lari orqali boshqarardi. Sharqiy Turkiston ustidan nazorat Lifanyuan⁷⁷ (理藩院 lifanyuan) orqali olib borilgan.

Shunday qilib 1759 yil harbiy harakatlar natijasida Qashg'ar, Yorkent va boshqa shaharlar batamom egallandi. Taxt vorislari butunlay yo'q qilinib, sinlarga qarshi turuvchilar Pekinga olib kelinib mahalliy amaldorlarga qul sifatida berildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sin imperiyasi tashkil topganidan so'ng, uning chegaralari Rossiya podsholigi yerlari kabi kengayib bordi. Sin armiyasi va rus qo'shinlari ham o'zaro bir necha marotaba to'qnash keladilar. Bu to'qnashuvda xitoyliklar ruslarni mag'lubiyatga uchratadilar. Sin sulolasining qo'shinlari hatto Birma va Vetnamgacha hujum uyushtiradi. XVII asr oxirlarida Sin sulolasi Mo'g'ulistonni bosib oldi va o'ziga bo'ysundirdi. Endi XVIII asr ortalariga kelib Sin qo'shinlari Mo'g'ulistonning g'arbidagi Jungariya va Sharqiy Turkiston yerlariga hujum qildi. Bu yerda millionga yaqin aholi qirib tashlandi, ularning bir qismi Rossiya hududiga o'tib ketdilar. Sin hukumati Sharqiy Turkiston egallangach shunday farmoyish chiqarildiki, u mohiyatan Xitoyni boshqa mamlakatlardan, avvalo G'arbiy Yevropa davlatlaridan ajratib qo'yish siyosatining boshlanishi edi. Buning asosiy sababi yevropalik sayyohlar, savdogarlarning

⁷⁶Lingduydachen- manjur bo'linmalari qo'mondoni

⁷⁷ Lifanyuan- xalqaro aloqalar palatasi

Xitoyda o'zboshimchalik qilib, yerli aholini mensimasliklari va bosqinchilik harakatlarini targ'ib qilishlarida edi.

II.3. Sin imperiyasining Sharqiy Turkistonni bosib olganidan so'nggi siyosiy ma'muriy tuzumi

Sharqiy Turkistondagi Yorkent xonligining siyosiy-ma'muriy tuzumi O'rta Osiyo xonliklaridan farq qilardi. Davlat boshida xon turib, unga fuqorolik ishlari bo'yicha yordamchi vaziri azam, mudofa va harbiy ishlar vaziri amir ul-umaro, muhrdor, devonbegi, shayxul islom, parvonachi va murob kabi amaldorlar bo'ysungan.

Xonlik hududi 5 ta viloyatga bo'lingan. Bular Qashqar, Yorkent, Xo'tan, Aksus va Chalish-Turfanlarga bo'lingan. Har bir viloyatni xon naslidan bo'lgan kichik xon deb nomlanuvchi amaldorlar boshqargan⁷⁸.

Sin Imperiyasi tomonidan Sharqiy Turkiston yerlari egallangach, u yerda harbiy sohalarda o'zgarishlar qilindi. Viloyatlardagi harbiy beklar saqlanib qolinib, beklarning o'rniga xitoyliklarga bo'ysungan uyg'ur amaldorlari qo'yildi. Bundan tashqari bu yerdagi hududlar qaytadan taqsimlandi. Bular 4 ta katta va 4 ta o'rta shaharlar va 23 ta shaharchalarga bo'lindi. Shundan so'ng Sharqiy Turkiston yangi nom bilan atala boshlandi. Ya'ni Nanlu Bachenem, xitoyliklar tilida janubiy yo'ldagi 8ta shahar ma'nosini anglatadi. Kumul va Turfan Urumchi hududiga berilganligi uchun 8ta shahar qatoriga kirmagan. Sharqiy Turkistondagi barcha hududlar Xitoyning oliy bosh qo'mondoni tomonidan boshqarilib, hokimyat ramzi kumush muhr bo'lgan. Bosh qarorgoh yangi Qashg'arning bir qismi bo'lgan Laynincheneda joylashgan⁷⁹.

Davlat boshqaruv tizimi 4 ta bo'limdan iborat bo'lgan. Birinchisi infan (ma'muriy ishlar bo'yicha), ikkinchisi hueyuchu (musulmonlar ishi bilan shug'ullanuvchi), uchinchisi zinmuchu (qishloq xo'jaligi hududlari bilan shug'ullanuvchi), to'rtinchisi liansianchu (savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi)

⁷⁸ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.102.

⁷⁹ Ходжаев А. Ko'rsatilgan asar, C.103.

bo'limlardan iborat edi. Birinchi bo'limda 7 ta odam bo'lib ular: boshliq, 2 ta yordamchi va boshqalardan iborat bo'lgan.

Har bir viloyat boshlig'iga *linduydachenia* deb atalgan harbiy amaldor yordam bergan. Bu amaldorlar bevosita ish yurituvchi amaldorga bo'ysungan. Sharqiy Turkistondagi ish yurituvchi amaldorlar soni 259ta odamni tashkil qilgan. Ularning asosiy qismi manjurlardan edi. Barcha 31ta shaharning har biriga hakimbek tayinlangan. Ular mahalliy aholi ustidan sudlov tizimi amalga oshirgan. Biroq ularning vakolatiga o'lim jazosini tayinlash kirmagan⁸⁰.

Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha "Hakimbek shahar hokimi cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, fuqarolik va harbiy ishlarni boshqaradi. U amal bo'yicha xitoy gubernatori dutunuga tenglashadi. Ayniqsa 1867-1877 yillarda Yoqubbek davrida ularning mavqei yanada oshdi". deb habar beriladi. Hakimbeklarning o'z muhrlaridan foydalanish ta'qiqlab qo'yilib, ularga sinlarning muhrlari berildi, bu muhr shahar harbiy komandiri muhri bilan teng huquqqa ega bo'lgan⁸¹.

L.I. Dumanning habar berishicha hakimbeklarga vaqt o'tishi bilan soliqlarni yig'ish va tasarruf etish ta'qiqlab qo'yilgan. U yana Hakimbekni xitoy amaldorlarining uchinchi darajasiga kiritadi. O'sha davr Xitoy bosh prokurori sensorata Yun Guy 1761 yil 10 sentabrdagi hisobotida shunday deyiladi: "Sharqiy Turkistonning 31 ta shahariga shuncha hakimbek tayinlandi" deb yozadi. "Sindin xuanyu Siyu tuji" da yozilishicha Qashg'ar, Yorkent, Xotan, Sayram, Qorashahar, Kuchara va Uchturfan shaharlari hakimbeklariga uchinchi daraja amaldorlari unvoni berildi. Kichik shahar hakimbeklariga to'rtinchi daraja unvoni berildi.

Harbiy kengashning 1760 yil 25 dekabrdagi hisobotida deyarli barcha hududlarga manjur amaldorlari tayinlandi deb yoziladi. 1777 yil viloyat boshliqlariga maosh haqidagi qaror qabul qilinadi. "Sindin xuejian ze" kitobida shunday yoziladi: "Qashg'ar va Turfan singari katta shahar boshliqlariga 200 lyan kumush pul miqdorida, o'rta shahar boshliqlariga esa 150 lyan miqdorida kumush

⁸⁰ O'sha joyda, C.104.

⁸¹ O'sha joyda, c.105.

pul, kichik shaharlariga 100 lyan miqdorida maosh belgilandi” deb yoziladi. Maosh amaldorlarning qaysi darajaga tegishligiga qarab belgilangan. “Sindin siyu tuji”da “uchinchi daraja amaldoriga 200 botmon yer va 100 ta shu yerda ishlovchi dehqon, to’rtinchi daraja amaldoriga 150 botmon yer va 50 ta dehqon, beshinchi daraja amaldoriga 100 botmon yer va 30 dehqon, oltinchi daraja amaldoriga 50 botmon yer va 15 ta dehqon, yettinchi daraja amaldoriga 30 botmon yer va 8 ta dehqon biriktirib qo’yilgan” deb yoziladi⁸².

Viloyat boshqaruvida ishlovchi amaldorlarga oylik xalqdan olinadigan soliqlar hisobidan qoplangan. Asosiy imtiyozlar Kumul va Turfan boshliqlariga berilgan. Bunga sabab ularning Jungariyaga qarshi kurashda sinlarga yordam berganliklari edi. Misol uchun birgina Kumul hokimi qo’l ostida 25 ta yordamchiva harbiy ishlar bo’yicha 2 ta bek va 28 ta harbiy bo’linma boshliqlari bo’lgan.

Xitoy hukumati Kumul hokimligiga avtonomiya berish bilan, uning ustidan nazoratni ham kuchaytirgan. Buning uchun yuqori palatadan maxsus vakil yuborilib nazoratni kuchaytirgan. 1757 yilda Kumulga birinchi marta hokim etib bu yerning srategik va geografik muhimligini hisobga olib imperator maslahatchisi yuborildi. U ham harbiy boshliq, ham soliq ustidan nazorat, ham bojxonani nazorat qilgan.

XVIII asrning 70 yillari boshlarida Xitoydan Kumulga xristianlarni ko’chirish siyosati amalga oshirildi. Ular Shensi va Gansu viloyatlariga joylashtirilib ularga 5 yil muddatga tayinlanadigan mahalliy amaldor boshliq etib qo’yilgan. 1765-yilda Kumulda tartibotni saqlovchi mahalliy politsiya xizmati tashkil qilindi. Unga syuncha deb nomlanadigan politsiya boshlig’i boshchilik qilgan⁸³.

Turfan viloyatiga asosan Turfan shahri va uning yon atrofidagi shaharlar kirgan. XVIII asrda bu yerda 1657 ta uyg’ur oilalari istiqomat qilgan. 1773 yil Xitoydan ko’chib kelayotgan uyg’ur bo’lmagan aholi uchun doimiy turar joylar

⁸² Ходжаев А. Ko’rsatilgan asar, C.107.

⁸³ O’sha joyda, C.113.

qurila boshlandi. Avval boshida ular Urumchi-Barqul hududiga joylashtirilgan edi, keyinchalik ular Gansu viloyatiga ko'chirildi va ularning boshlig'i fu(tunji) deb nomlangan. 1780 yilda boshqaruv tizimida ma'lum o'zgarishlar qilindi. Viloyat boshlig'i banshidachen o'rniga linduydachen boshliq etib tayinlandi. Ya'ni viloyat hokimi o'rniga shu viloyat harbiy komandiri tayinlandi. Bu bilan mustamlakalarda yanada qattiqo'l siyosat olib borish ko'zda tutilgan.

Xitoy hukumati o'z hokimiyatini mustahkamlash va ularga qarshi harakatlarni oldini olish uchun bir hududda istiqomat qiluvchi turli xalqlar o'rtasida milliy adovat keltirib chiqarishga urindi va ma'lum bir ma'noda bunga erishdi ham. Misol uchun belarus va chernogorlar o'rtasida nizo chiqarishga urindi. Belarus xoni Burxan Dinxoji imperatorga qarshi kurash boshlagan paytda imperator chernagor xoniga Bek unvonini berdi va soliqlardan ozod qildi. Shu yo'l bilan chernagorlarni belaruslarga qarshi qo'ydi va bu orqali ularni bosib olishga erishdi⁸⁴.

Sin hukumati Sharqiy Turkiston odamlariga imtiyozlarni turlicha bergan. Masalan oqsuyak amaldorlar ham 3 ga bo'lingan. Bular; dunsichen- 4 ta sharqiy shahar boshliqlari, sisichen-g'arbiy 4 ta shahar boshliqlari, dunlu- sharqiy yo'ldagi shahar boshliqlaridir. Bulardan eng nufuzlisi dunlu boshliqlari hisoblanib, dunsichen va sisichen boshliqlari asosan Kumul va Turfan knyazlaridan tayinlanib nufuzi sal pasroq bo'lgan. Bu Kumul va Turfan knyazlarining manjur hukmdorlari orasida obro'si o'rta ekanligini bildirardi. Imperator Chan Lunning qaydnomalarining birida shunday yoziladi: "Yorkent musulmonlari itoatsiz bo'lib, ularga hakimbeklarni tayinlash juda ma'suliyatli vazifadir. Shuning uchun bizning ishonchimizni oqlagan Aminxo'jani Yorkentga va Yusufni Qashg'arga hakimbek etib tayinlaymiz". Sin imperiyasi va mahalliy aholi o'rtasida tarjimonlar Kumul va Turfanlik oddiy xalq orasidan olingan.

XVIII asrning birinchi yarmida Sin hukumatining Sharqiy Turkistondagi ma'muriy boshqaruv tuzimi bo'yicha Imperatoridan keyin Lifanyuan, Ili harbiy gubernatori, Ili harbiy gubernatori maslahatchisi, Urumchi harbiy gubernator

⁸⁴Ходжаев А. Ко'rsatilgan asar, С.115.

maslahatchisi, Tarbag'atay harbiy gubernator maslahatchisi, Qashg'ar harbiy gubernator maslahatchilari turgan⁸⁵.

Qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xalxedagi Sin hukumatining jungarlar ustidan g'alabasi Sharqiy Turkistonni bosib olishdagi birinchi qadami edi. Sin imperiyasi o'z hududini Sharqiy Turkiston, qozoq yerlari va O'rta Osiyo yerlari hisobiga kengaytirishga urindi. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida Junagriyaga qarshi harbiy harakatlar boshlandi. Bu harakatlar Jungariya sharqidagi Shinjon Uyg'ur avtonom hududini bosib olishdan boshlandi. Yorkent hududini bosib olish uchun esa Kumul hududiga hujum uyushtirildi.

XVIII asrning 20 yillarida Sharqiy Turkistonda jungarlar qarshiligi bo'lib Kumul viloyatidan tashqari barcha hududlar egallandi. Sin hukumati endi Jungarlarni harbi yo'l bilan butunlay bo'ysundirishga kirishdi. Birinchi yurish 1714-1715 yillar muvofaqqiyatsiz tugadi. Ikkinchi yurish 1716-1717 yillar bo'lib, bu yurish oyrotlarning kutulmaganda paydo bulishi natijasida muvofaqqiyatsizlikka uchradi. XVIII asrning 20 yillarida Yorkent xonligini bosib olishni ikkinchi bosqichi boshlandil. Lekin bu yurishlar Sharqiy Turkistonni butunlay eggalanishiga olib kelmadi. Oxir oqibatda sinlar Turfandan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Sinlar Jungar xonini bo'ysundirishga kuzi yetmagach hujumni ma'lum vaqtga qoldirdi. XVIII asrning birinchii choragida Jungar xonligi sinlar bilan kelishishga urinib ko'rdi. Lekin 1730-1732 yillarda sin hukumati yangi urush boshladi. Navbatdagi mag'lubiyatdan so'ng Sin hukumati hukumat almanushuvini kutishga majbur buldi. 1740-1754 yillarda bu davlatlar o'rtasida savdo sotiq rivojlangan bo'lsada ichki kurashlar hamon davom etardi. 1755 yil Goldon Serenni o'lishidan so'ng yangi urush boshlandi. Bu safar belagor xojalari jungarlaga qarshi quyildi. 1756-1757 yillardagi Jungariyada sinlarga qarshi harakatlar Yorkent xonligiga qo'shimcha kuch yuborishga halaqit berdi. Faqatgina 1758-1759 yillarga kelib butun Sharqiy Turkiston yerlari bo'ydsundirildi.

⁸⁵ O'sha joyda, C.116.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ajdodlarimiz hayoti, tirikchilik faoliyati uchun Markaziy Osiyo xududi azal-azaldan yaxlit bir makon bo'lib kelgani barchaga ma'lum. Ular bu zaminda chegara nimayu bojxona nima ekanini bilmay ot so'rganlar, karvon yetaklaganlar. Ularni yagona din, uxshash til va urf-odatlar, mushtarak tarix va yashash tarzi kabi omillar birlashtirib turgan. Shu qatorida Markaziy Osiyo hududini bir bo'lagi sifatida Sharqiy Turkiston va uni mustamlaka bo'lgan davr tarixini o'rganish juda katta ahamiyatga ega. Biz bu o'lkaning tarixi haqida ko'p qiziqarli ma'lumotlarni o'rgandik. Bu zaminning tarixi o'ziga xos tarzda qiziqarli bo'lgan ekanligi mavzuni o'rganishda menda katta ta'surot qoldirdi.

Sharqiy tarixiy manbalarda yozilishicha va Rus manbalarining ma'lumoti, geologik tadqiqotlarga ko'ra, Sharqiy Turkiston xududi o'rnida taxminan bundan 1 milliard yil ilgari katta dengiz bo'lgan ekan. 300 mln yil oldin bu yerda yuz bergan geologik o'zgarishdan so'ng bu xudud quruqlikga aylana boshlagan. Hozirgi Shinjon-Uyg'ur muxtor rayoni XXRning shimoliy g'arbiy qismidagi milliy o'lkaning, yani Sharqiy Turkistonning nomi bo'lib u 1955 yil 1 oktyabrdan boshlab rasmiy joriy etilgan. Shungacha maskur o'lka rus va g'arb adabiyotlarida Sharqiy Turkiston, Xitoy Turkistoni, Xitoy adabiyotlarida Shinjon, qadimgi xitoy manbalarida Shiyuy – “g'arbiy zamin”, “g'arbiy yurt”, “g'arbiy mamlakatlar”, XIV asrga oid xujjatlarda va XVI-XVII asrlarga bitilgan forsiyzabon qo'lyozmalarda “Uyg'uriya”, “Ug'uriston” deb atalgan. “Shinjon” so'zi 1756 yildan paydo bo'lgan bo'lib, u “yangi chegara” yoki “yangi hudud” degan ma'noni anglatadi. Bundan 4 ming yil avval Sharqiy Turkiston hududida rung, rungdi yoki g'arbiy rung deb ataluvchi qabilalar yashagan. Mil. avv. III-II asrlarda Sharqiy Turkistonda Krurona, Turfon, Kuchar, Qashqar [Suli], Yorkent [Yuytyan], Xo'tan [Udun], Usun kabi davlatlar mavjud bo'lib, ular Kun xoqonligi ta'sirida bo'lgan.

XVII asrning 1 yarmida Sharqiy Turkistonning shimoliy qismida yashayotgan oyrotlar kuchayib, Ili vodiysini markaz qilgan holda yangi davlat

tashkil etdi. Ma'lumki ushbu oyrotlar Chingizxon davrida maskur vodiya joylashtirilgan chap qanot (jungor) mug'ul qo'shinlarining avlodi bo'lib, ular 4 ulusga bo'linar edi. Shu bois oyrotlar davlati tarixda Jung'or (Zunga'r) xonligi (1635-1755) deb nomlangan. Ushbu xonlik tezda kuchayib, Sharqiy Turkistonning shimoliy qismini va g'arbiy Mongoliya, Oltoy kabi joylarni egallab, kuchli davlatga aylangan.

Sharqiy Turkistonda mavjud Jungar davlatining dastlabki davrlarida oyrot xonlari barcha mug'ullarni qaytadan birlashtirib, Chingizxon barpo etgan Buyuk mug'ul imperiyasini qayta tiklashga harakat qilgan. Shu bois u avval Yorkent xonligi ustidan o'z nazoratini o'rnatib, keyinchalik uning g'arbidagi xalqlarni ham itoat qildirishga kirishgan.

Bunday vaziyatda yuqorida tilga olib o'tilgan Sin deb nomlangan manjurlar sulolasi Xitoyning barcha viloyatlarini egallab olib, Markaziy Osiyoni qo'lga olish rejalarini tuzdi. Bu rejani amalga oshirishga qaratilgan Sin qo'shinlarining harbiy yurishlariga Jungar xonligi qattiq qarshilik ko'rsatdi. XVII-asrning oxirlarida Mongoliya hududida bo'lgan to'qnashuvda manjurlar g'olib chiqadi. Shundan keyin Jungar xonligi ilgarigi rejalaridan voz kechib, o'zlarini mudofaa qilish maqsadida Sin imperiyasi bilan tinchlik bitimini imzolashga va savdo aloqalarini yo'lga qo'yishga harakat qildi. Sin hukumati esa jungorlardan tobelikni talab qildi.

Shunday qilib Sin hukumati o'zining an'anaviy usuli varvarlarni varvarlar orqali boshqarish siyosatni olib bordi. Sharqiy Turkiston egallangach xon va uning yaqinlari bilan birgalikda sinlarga qarshi harakat a'zolari ham Pekinga olib ketildi. Mahalliy boshliqlar vakolatlari cheklandil. Hududlar esa katta, o'rta va kichik shaharlarga bo'linib harbiy boshliqlarga berildi. Harbiy gubernator qarorgohi Ilida joylashgan edi. Harbiy gubernator yordamchilari Sansandachen (harbiy maslahatchi), banshidachen (bosh ish yurituvchi), linduydachen (manjur harbiy gornizol komandiri)lari bo'lgan. Shunisi qiziq-ki, Sin hukumati Sharqiy Turkistonni lifanyuan orqali boshqargan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримов асарлари

I.1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Том 7. - Тошкент: Ўзбекистон, 1993.- б-135.

I.2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка еришиш оstonасида. - Тошкент: Ўзбекистон, 2011.- 440 б.

II. Umumiy adabiyotlar

II.1. Абдухолик А. Чин ва Мочин. –Тошкент: Фан, 2006. -159 б.

II.2. Ходжаев А. Буюк Ипак Йўли. –Тошкент. Фан, 2007.- 280 с.

II.3 Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент. 1985. Б-430

II.4 Ахмедов Б. Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XVII вв Ташкент, 1987.

II.5 Бутин. История народов Восточной и Центральной Азии. Москва-Наука, 1986

II.6.Гуревич Б.П. Международные отношения в Центральной Азии в XVII-первой половине XIX в. М., 1983.-345.с.

II.7. Доронин Б.Г. Китай XVII-XVIII веков. Проблемы историографии и источниковедения. Л., 1988.- 387.с.

II. 8. Лен Рангов Зиху . Қадимки уйгурлар тарихи .Урумчи.

П.9. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди. Тошкент 1996. – 512.с.

П. 10Muhammad Amin Bug'ro.Sharqiy Turkiston tarixi . Anqara .1989

П.11 Симонов Хрестоматия по истории Китая в средние века (XV-XVII вв.) Москва-Наука, 1960.

П.13. Ходжаев А. Захват цинским Китаем Джунгарии и Восточного Туркистана. М., 1982.-187.с.

П.14. Ходжаев А. Цинская империя и Восточный Туркестан в XVIII в. (Из истории международных отношений в Центральной Азии). – Ташкент: Фан, 1991.-132 с.

П.15. Ходжаев А. ВзаимоотношенияЦинской империи с Джунгарским и Яркендским ханствами (1700-1761). - Ташкент: Фан, 1989.-153 с.

П.16. Шан Юе. Очерки Истории Китая (中国历史). Москва. 1959.-579.с.

П.17. Зладкин И.Я. История Джунгарского ханства (16351758). 2 изд. М., 1983.

III. Dissertatsiya

III.1. Махмутходжаев М.Х. Завоевание Синьцзяна маньчжурами. Дипломная работа. - Ташкент: ТашГУ, 1967. – 129 с.

IV. Internet saytlari

www.Google.co.uz

www.e-rarix.uz

www.kitob.uz

www.ziyonet.uz

www.dog.com